

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022

YANVAR

№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
5-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-5**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-5**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

1. Muxtorov Qodirxon G'ozixon o'g'li, Xodjayev Umidjon Raxmatovich KUCHLI TA'SIR QILUVCHI ZAHARLI MODDALAR	7
2. Sanayev G'ayrat Shermuxamedovich, Xamrakulov Solejon Suponovich TA'LIM SIFATINI OSHIRISH –DAVR TALABI	10
3. Azizov Shuxrat Shodmonovich QO'SHINLAR TIZIMIDAGI KO'CHMA TA'MIRLASH USTAXONASINING VOSITALARI.....	12
4. Jamolov Azizjon Axmatovich, Amrullayev Said Inatullayevich DUNYODA ZAMONAVIY LOKAL URUHLARDA TEXNIKA QUROL-ASLAHALAR O'RNI	14
5. Komilov Xayotillo Omatilloevich BIZNING MAQSAD-YUKSAK MA'NAVİYATLI, INTELEKTUAL SALOHİYATGA EGA BO'LGAN SERJANTLARNI TAYYORLASH	16
6. Rafiyev Djamxo'r Rabbimqulovich MILİY TAOMLAR – MILLİY ARMIYAMIZGA AХAMIYATI.....	18
7. Elmurodov Shuxrat Aktamovich TIBBIYOT PUNKTI ISHINI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY QARASHLAR	20
8. Ядгаров Жамшид Нарзиевич ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	22
9. Abdullayev Farrux Ortiqaliyevich, Begboyev Abduvaxxob Rabbimqulovich KIMYOVIY XAVFLI OBYEKTЛАR.....	24
10. Abduraxmanov Bexrux Muxamadovich, Rustamov Otabek Norko'ziyevich РАХТА НОСИЛИНИ YETISHTIRISHDA МЕХАНИЗАТСИYАLASHGAN ISHLAR DARAJASINI OSHIRISH VA РАХТА НОСИЛИНИ MASHINABOP QILIB YETISHTIRISH TEХNОLOGIYASI.....	27
11. Зокиров Рахматилло Мухторович, Адилов Жўрабек Нориматович НАТО МАМЛАКАТЛАРИНИНГ ТАКТИК БОШҚАРУВ БЎҒИНИДА АЛОҚА ТИЗИМЛАРИ	29
12. Садиков Бахтиёр Рустамович, Эшонкулов Одил Алламуратович ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРНИНГ ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМЛАРИНИ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	32
13. Muxtorov Qodirxon G'ozixon o'g'li, Hayitov Baxtiyor Omonovich НАРБИY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA	34
14. Erkayev Berdiyot Yuldashevich, Ibragimov Firdavs Botirxonovich YETAKCHILIK TABIATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	36



ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

KUCHLI TA’SIR QILUVCHI ZAHARLI MODDALAR

Muxtorov Qodirxon G’ozixon o’g’li

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi radiasion,
kimyoviy, biologik muhofaza sikl katta
o’qituvchisi podpolkovnik

Xodjayev Umidjon Raxmatovich.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik
mutaxassislar tayyorlash markazi Chegara qo’shinlari
xizmati va taktika sikli o’qituvchisi

Annotatsiya: kimyo fani buyuk imkoniyatlarga ega bo’lgani holda tabiatda mavjud bo’lmagan narsalar yaratadi, inson mehnatini yengillashtiradi, uning vaqtini tejaydi, uni kiyintiradi va davolaydi.

Kalit so’zlar: Qishloq xo’jaligini kimyolashtirish va kimyo sanoatining so’nggi yillarda tezkor rivojlanishiga sabab bo’lmoqda. Natijada turli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish, qo’llash, saqlash va ularni tashish hajmlari ham o’sib bormoqda.

Kimyoviy texnologiyaning doimiy takomillashuviga qaramay, atrof – muhitga kuchli ta’sir qiluvchi zaharli moddalar (KTZM) chiqib ketishi bilan bog’liq bo’lgan halokatlarning sodir bo’lish xavfi ortib bormoqda.

«Dou-Kemikl» nomli Amerika firmasining ma’lumotlariga qaraganda, so’nggi vaqtlarda AQSh da har kecha-kunduzda KTZM bilan bog’liq bo’lgan 17-18 ta halokatli hodisalar sodir bo’lmoqda. Bu halokatlar nafaqat KTZM ishlab chiqarish va qo’llash jarayonida, balki ularni saqlash hamda tashish jarayonida ham sodir bo’ladi.

Jumladan, 1979 yilning noyabr oyida Ontario (Kanada) viloyatida xlor, stirol, propan, toluol va boshqa zaharli moddalar ortilgan poyezd halokatga uchradi. Buning natijasida olti kun davomida 200 ming kishilik aholini evakuasiya qilishga to’g’ri kelgan.

1974 yilda Fliksboro (Buyuk Britaniya) shahridagi kaprolaktam ishlab chiqaruvchi korxonadagi quvurning yorilishi natijasida atmosferaga 40 tonna siklogeksan chiqib ketib bug’lanishi natijasida diametri 200 metr bo’lgan zaharli bulut paydo bo’ldi. 45 soniyadan so’ng bulut alanga manbai bilan to’qnashib portlash sodir bo’ldi. Uning quvvati 50 tonna trinitrotoluol zaryadi bilan ekvivalent edi. 4,5 ga maydonda kuchli yong’in yuzaga keldi. Hattoki, korxonadan 1 km uzoqlikdagi KTZM saqlanuvchi rezervuarlarga ham shikast yetdi. Korxonada butkul ishdan chiqdi. Portlash oqibatida 59 kishi halok bo’ldi va 36 kishi yaralandi. Korxonadan tashqaridagi 53 kishi jiddiy va yuzlab kishilar yengil jarohat olishdi, 2000 ga yaqin bino shikastlandi.

1984 yil dekabr oyida Bxopal (Hindiston) shahrida AQSh ning «Yunion Karbayd» firmasining pestisid va insektisid ishlab chiqaruvchi kimyo korxonasida halokat sodir bo’lib, 43 tonna metilizosianat va uning parchalanishidan hosil bo’lgan mahsulotlar tashqariga chiqib ketdi. Unda zaharlanish maydoni bo’yiga 5 km va eniga 2 km ni tashkil etdi. Xalokat natijasida 3150 kishi halok bo’ldi, 20 ming ga yaqini butkul nogiron va 200 mingdan ortig’i esa turli shikastlanishlar oldi.

Zaharlilik darajasiga qarab organizmga tushishi mumkin bo’lgan kimyoviy moddalarni olti guruhga bo’linadi.



Kimyoviy moddalarning zaharliligi

Zaharli guruhi	LC* ₅₀ yoki qisman o'ldiruvchi konsentratsiya, mg/l	LD ₅₀ ** yoki qisman o'ldiruvchi dozasi mg/kg
Haddan ziyod zaharli	1 dan kam	1 dan kam
Yuqori darajada zaharli	1-5	1-50
Kuchli darajada zaharli	6-20	51-500
Sezilarli darajada zaharli	21-80	501-5000
Kam darajada zaharli	81-160	5001-15000
Zaharsiz	160 dan ortiq	15000 dan ortiq

*LC₅₀ – 50% shikastlanganlarda o'limga olib keluvchi o'rtacha konsentratsiya.

**LD₅₀ - 50% shikastlanganlarda o'limga olib keluvchi o'rtacha toksodoza.

O'ta xavfli (haddan ziyod va yuqori darajada zaharli) kimyoviy moddalarga quyidagilar kiradi:

-ayrim metallarning birikmalari (margimush, simob, kadmiy, qo'rg'oshin, talliy, rux va boshqalarning organik va noorganik hosilalari);

-metallarning uglerodli birikmalari (nikel tetrakarbonili, temir pentakarbonili kabilar);

-sian guruhi tutgan moddalar (sianid kislota va uning tuzlari, nitrillar, organik izosianatlar);

-fosfor birikmalari (fosfororganik birikmalar, fosfor xlorid, fosfin, fosfidin);

-xlorgidrinlar (etilenxlorgidrin, epixlorgidrin);

-galogenlar (xlor, brom).

Kuchli darajada zaharli kimyoviy moddalarga quyidagilar kiradi:

-mineral va organik kislotalar (sulfat, nitrat, fosfat, sirka kislotalar);

-ishqorlar (ammiak, o'yuvchi kaliy, o'yuvchi natriy.);

-oltingugurt birikmalari (eruvchi sulfidlar, eruvchi tiosianatlar, oltingugurt uglerodi, oltingugurt xlorid va florid);

-uglevodorodlarning xlor va brom almashinuvchi hosilalari (metilxlorid, metilbromid);

-kislotalarning ayrim aldegid va spirtlari;

-geterosiklik birikmalar. Sezilarli, kam darajada zaharli va zaharsiz kimyoviy moddalarga qolgan barcha kimyoviy birikmalar kiradi. Ular hyech qanday kimyoviy xavf - xatar tug'dirmaydi. Shuni aytish lozimki, moddalarning alohida guruhini pestisidlar, ya'ni qishloq xo'jaligi zararkunandalariga va yovvoyi o'tlarga qarshi qo'llaniluvchi preparatlar tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi inson uchun xavfli hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan kimyoviy moddalarning ko'pchiligi, shu jumladan kuchsiz darajada zaharli moddalar ham insonning og'ir shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin ommaviy shikastlanishlarga hamma zaharli kimyoviy moddalar ham sabab bo'lavermaydi. Faqatgina ayrim fizikaviy va kimyoviy, zaharli xususiyatlari bir-biriga mujassamlangan holdagina (bug' yoki mayda dispersli aerazol holatiga o'tish) halokat sodir bo'lganda insonlarni ommaviy ravishda shikastlanishiga sabab bo'la oladi. Bunday kimyoviy birikmalar kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar (KTZM) guruhini tashkil qiladi. Shunday qilib, KTZM – bu sanoatda ko'plab ishlatiladigan, halokat sodir bo'lganda qo'shinlar, shaxsiy tarkib va fuqarolarning ommaviy shikastlanishiga olib keluvchi kimyoviy moddalar hisoblanadi.

**KUCHLI TA'SIR QILUVCHI ZAHARLI
MODDALARNING ZAHARLILIK XOSSALARI**

KTZM ning zaharlilik tavsifi uchun bo'sag'a konsentratsiyasi, bardosh chegarasi, o'ldiruvchi konsentratsiya va o'ldiruvchi doza tushunchalari qo'llaniladi.

KTZM ning inson organizmiga ta'sir darajasi bo'yicha sinflanishi.

Ko'rsatkichlar	Xavflilik sinfi uchun me'yor.			
	1 chi	2 chi	3 chi	4 chi
KTZM ning ish zonasi-dagi ruxsat etilgan konsentra-siyasi (mg/m ³)	0,1 dan kam	0,1-1	1,1-10	10 dan ortiq
Oshqozonga tushganda o'rtacha o'ldiruvchi dozasi (mg/kg)	15 dan kam	15-150	151-500	500 dan ortiq



Teriga tushganda o'rtacha o'ldiruvchi dozasi (mg/kg)	100 dan kam	100-500	501-2500	2500 dan ortiq
Havodagi o'rtacha o'ldiruvchi konsentratsiya-yasi (mg/m ³)	500 dan kam	500-5000	50000	50000 dan ortiq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ommaviy qirg'im qurollari va ulardan himoyalaniish. Toshkent -2007 yil.
2. Kimyoviy qo'shinlari serjantlar darsligi. Toshkent-2008 yil.
3. Radiatsion kimyoviy vaziyatlarni baholash o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2008 yil.
4. Kuchli ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2008 yil.



ТА’ЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ –ДАВР ТАЛАБИ

Sanayev G’ayrat Shermuxamedovich
O’R QK Kichik mutahassislarni tayyorlash
Markazi moddiy ta’minot sikli katta
o’qtuvchisi podpolkovnik
Xamrakulov Solejon Suponovich
O’R QK Kichik mutahassislarni tayyorlash
Markazi moddiy ta’minot sikli o’qtuvchisi
Qurolli Kuchlar xizmatchisi, podpolkovnik

***Annotatsiya:** yuqori texnologiyalarga asoslangan yalpi axborotlashuv asrida ilm-fan, ishlab chiqarishning yuksak taraqqiyoti zamon talablariga mos ravishda raqobatbardosh kadrlar va harbiy kadrlarni tayyorlash asosiy vazifadir.*

***Kalit so’zlar:** harbiy talim, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi, o’quv-moddiy baza, talim sifati, ko’nikma, malaka, bilim.*

Suqrot hakim –“O’qib- o’rganmay turib xam foyda va zararning farqiga yeta olaman degan odamni, tentak deb bilmoq kerak ”deganlar.

So’fi Ollohyor hazratlarining hikmatlari:

Ilm agar dilga urar –yoring erur,

Ursa tanga, shubxasiz moring erur.

Ma’nosi:Agar ilmni chindil va ixlos bilan egallasang, butun hayoting davrida og’iringni yengil qilib yuruvchi yo’ldoshing bo’ladi.Agar dunyo boyligiga yetishmoq maksadida ilm olsang, egallagan ilming ilon bo’lib, tanangga chirmashadi va umring bo’yi seni azoblaydi.

Ilm egallash insoniy burch, yuksak mas’uliyatdir.Davlat qudrati , mamlakat taraqqiyoti va uning xavfsizligini ta’minlash asosida ham ilm yotadi.Imom Buxoriy aytganlaridek ,”Dunyoda ilmdan boshka najot yo’q va bo’lmagay”. Kaysi millat olam aro ulug’likni istabdi, Yusuf Xos Hojib xazratlarining o’gitlariga amal kilsin.” O’quv qayda bo’lsa,ulug’lik bo’lar, bilim qayda bo’lsa,buyuklik bo’lar”.

Bilim insonga jamiyatda tartib o’rnatish uchun huquq va axloqni o’ylab chiqish imkonini berdi. Ular odamlar o’rtasidagi munosabatni murosaga solish va kelishtirish orqali jamiyatda tartib o’rnatadi. Agar odamlar o’rtasidagi munosabat huquq va axloq vositasida murosaga solinmasa, jamiyat son-sanoqsiz ziddiyat va qarama-qarshiliklar va urushlardan iborat bo’lib, bunday jamiyat oxir-oqibatda halok bo’ladi. Chunki, odamlarning manfaatlari, qiziqishlari xilma-xil bo’lib, ularni qondirish jarayonida tabiiy ravishda ziddiyatlar kelib chiqadi.

Ijtimoiy hayotni barcha sohalarini ilmiy asosda boshqarish jamiyatdagi voqyea-hodisalarni oldindan ko’ra bilish imkoniyatini berib, xato qilmasdan to’g’ri harakat qilishni ta’minlaydi. Eng muhimi jamiyatda tartib o’rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini samarali ishlashini ta’minlaydi. Chunki, ilm jamiyat taraqqiyotining muhim sharti tartib ekanligini va tartib o’rnatish uchun esa nazorat tizimi uzilishsiz ishlab turishi kerakligini anglab olish imkoniyatini beradi. Ilmi bor odam nazoratsiz jamiyatda tartib o’rnatib bo’lmasligini biladi.

Dunyoda tajovuzkor urushlar va harbiy ziddiyatlar mavjudligi davlatimizning mudofaa qudrati, uni xavfsizligini ta’minlash, har qanday tajovuzni yakson qilishga qodir Qurolli Kuchlar tayyorgarligiga katta e’tibor berishni talab etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ijtimoiy roli va tarixiy maqsad, vazifalari yuqori darajadagi ogohlik, har qanday tajovuzkorlik harakatlarini qaytarishdan iborat. Bu armiya yangi tipdagi armiya bo’lib, mustaqillikning yuksak ildizlariga, mamlakatning iqtisodiy qudrati va o’z xalqiga tayanadi.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qudratining asosi davlat rahbariyatidir. Davlat rahbariyati harbiy siyosatni ishlab chiqadi, moddiy-texnik ta’minot, qo’shinlar tashkiliy tuzilmasi takomillashuvi, jangovar harakatlar olib borish usullari bo’yicha g’amxo’rlik qiladi.

Davlatimiz rahbari,Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni ta’kidlaganidek, har bir askar, ofiser o’zining murakkab, lekin sharaffi vazifasini ado etayotib, armiya tarbiya, mardlik, vatanparvarlik, jasorat maktabi bo’lishi uchun jamiyatning g’amxo’rligi va e’tiborini har doim his qilishi kerak.

Har bir fuqaro uchun O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilish, o’zining



Vatan oldidagi muqaddas burchini O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi va O'zbekiston Respublikasining “*Umumharbiy xizmat va harbiy majburiyat*” to'g'risidagi qonuniga asosan bajarishi sharaftir.

Komandirlar tarkibi-Qurolli Kuchlar asosiy o'zagi hisoblanadilar. Shaxsiy tarkibning ta'lim va tarbiya sifati, intizomi va uyushqoqligi, umuman olganda bo'linmalar va qismlar jangovar shayligi ularning tayyorgarlik darajasi komandirlarning tashabbuskorligi va bilim saviyasiga bog'liq.

Serjantning shaxsiy namunasi uning asosiy quroli, o'z majburiyatlarini bajarishning muhim shartidir. U tarbiyaning barcha amaldagi usullarini kuchaytiradi va kuchsizlantiradi. “So'z o'rgatadi, namuna boshqaradi”-deydi dono xalqimiz.

Harbiy xizmatchilarni ta'lim va tarbiyasida serjantlarning tutgan o'rni va vazifalari.

Shaxsiy tarkibning tarbiyasi serjantlar tomonidan kundalik harbiy xizmat va jangovar o'quv-mashqlar davomida amalga oshiriladi. Ular o'z bo'ysunuvchilari xizmatini umumharbiy nizomlarga asosan tashkillashtiradilar, shaxsiy tarkibda harbiy xizmatning barcha tartibi, harbiy burch, qasamyodga sadoqatni tarbiyalashga erishadilar.

Serjantlarning muhim vazifalaridan biri askarlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, yuksak vatanparvarlik, or-nomusli, yuksak axloqli, metin irodali, qat'iyatli, jasurlik, mardlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Buning uchun ularning o'zlari o'z Vatani va xalqiga cheksiz sadoqatli bo'lishlari, o'z Vatani uchun fidokorona harakat qilish, o'z burchini bajarishga doim tayyor bo'lishlari kerak.

Serjantlar o'z bo'ysunuvchilariga qurol-yarog' va harbiy texnika, umumharbiy nizomlar va rahbariy hujjatlar talablarini o'rganishga yordam beradilar, sutkalik naryadda ular bilan birgalikda xizmatni tashkillashtiradilar va olib boradilar, harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha kundalik ishlar olib boradilar, umumharbiy nizomlar, komandirlar buyruqlari talablariga o'z harakatlari va bajaradigan ishlarida bo'ysuna olishni shakllantiradilar. Ular o'z bo'ysunuvchilarining harbiycha qaddi rostligi va jismoniy tayyorgarligiga, sog'ligini saqlash va barcha kerakli narsalar bilan ta'minlanishiga javob beradilar. Bu yerda serjantlarning shaxsiy namunasi, obro'si, yuqori ma'naviy sifatlari, ishga, intizomga bo'lgan fidokorona munosabati juda zarur.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan muhim talab-bo'ysunuvchilar mansub bo'lgan millatning o'ziga xosliklari, urf-odatlarini, an'analarini bilish va hisobga olishdir. Har xil millat vakillaridan iborat jamoada serjantda alohida ziyraklik, ehtiyotkorlik va prinsipiallik, do'stlikni mustahkamlash haqida g'amxo'rlik namoyon bo'lishi kerak.

Yuqori talabchanlik-komandirning ajralmas sifati, bo'ysunuvchi bo'linmadagi intizom va uyushqoqlikning asosidir. Uning bo'ysunuvchilarga nisbatan, odatda, xafa qiladigan, askarni serjantdan uzoqlashtiradigan, qo'pollik, mensimaslik, qadr-qimmatini yerga urishga hiech qanday aloqasi yo'q. Talabchanlik doimiy, haqiqiy, barchaga bir xil, asosli bo'lishi kerak.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, ta'lim jarayonida talaba va kursantlarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olish va mustaqil ta'lim olishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati, talaba va kursantlar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi; talabalar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o'quv-uslubiy adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalarning yetarli emasligi va boshqa muammolarni bartaraf etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. “Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili”. — T.: O'zbekiston, 1995.-32 b.
2. J.G. Yo'ldoshev. “Ta'lim yangilanish yo'lida”. T.: “O'qituvchi”, 2002,- 207 b.



ҚО’ШИНЛАР ТИЗИМИДАГИ ҚО’ЧМА ТА’МИРЛАШ УСТАХОНАСИНИНГ ВОСИТАЛАРИ

Azizov Shuxrat Shodmonovich

Ўзбекистон Республикаси Қуrolли Кучлари
Кичик mutaxassislar tayyorlash markazi
texnik tayyorgarlik sikl o’qituvchisi,
mayor. Samarqand shahri.

“Har bir davlat xizmatchisi har kuni o’zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi kerak”.

Аннотасија: Ushbu maqolamda okruglar miqiyosidagi ko’chma ta’mirlesh ustaxonalarini qishloq xo’jaligi texnikalariga texnik xizmat ko’rsatishi va yangi zamonaviy asbob-uskunalar bilan butlanganligi Qurolli Kuchlarning texnik ta’minoti samarasini yanada oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda.

Maqolamni dalbzarligi shundaki xozirda fermer va qishloq xo’jaliglarida dala sharoitlarida qishloq xo’jalik mahsus texnikalariga texnik xizmat ko’rsatish, ta’mirlesh vositalari va kuch vositalari mavjud emas.

Калит so’zlar: ta’mir, vosita, qo’shin, bo’linma, mahsus-uskuna, shaxsiy tarkib, anjomlar, extiyot qismlar, maqsad, sharoit, xo’jalik, texnika, kuch vosita, zamonaviy, qurol-aslaha, texnik xizmat ko’rsatish.

Qurolli Kuchlarning texnik ta’minoti bo’linmalarining eng kerakli bo’lgan bo’g’imi bu okruglarda joylashgan xarakatdagi ko’chma ta’mirlesh ustaxonalaridir. Xozirgi kunda ko’chma ta’mirlesh ustaxonalarini dala sharoitlarida qishloq xo’jaligi texnikalariga texnik xizmat ko’rsatayotgani bejizga emas.

Ko’chma ta’mirlesh ustaxonalari bu borada barchaga ibrat bo’lib kelmoqda yaqqol misollar keltirsak paxta-yig’im terim mavsumida fermer va qishloq xo’jalik texnikalarini yangi asbob-uskunalar yordamida ta’mirlab paxta yig’im terimiga o’z xissalarini qo’shib keldilar.

2020 yil paxta yig’im terimi oldidan qishloq hojalik texnikalariga xar bir harbiy okruglarning ko’chma ta’mirlesh ustaxonasidan mutaxassis-ta’mirlovchilar tarkibidan ishchi guruhlar tuzilib viloyatlarda nosoz va ta’mir talab (paxta terim mashinalari) qishloq xo’jalik texnikalariga yangi namunadagi asbob-uskunalar bilan amaliy yordam berib paxta yig’im terimiga texnik ta’minoti mutaxassislari o’z xissalarini qo’shdilar.

Ko’chma ta’mirlesh ustaxonasidagi moddiy-texnik ta’minot ta’mirlesh ish faoliyatini va imkoniyatlarini qo’llab turish maqsadida tashkil qilinadi.

U ishchi postlarini kerakli agregatlar, ehtiyot qismlar va materiallar, shuningdek asboblar, yoqilg’i, moylovchi va boshqa turdagi moddiy vositalar bilan uzluksiz ta’minlash orqali amalga oshirilishi kerak.

Moddiy-texnik ta’minotga ko’chma ta’mirlesh ustaxonasini ta’mirlesh ish faoliyatini ta’minlash uchun moddiy-texnik ta’minot rejasini tuzib chiqqan bo’linma bo’linma komandiri javobgar bo’ladi.

Moddiy-texnik ta’minot rejasini tuzish uchun birlamchi ma’lumotlar quyidagilar bo’ladi:

mashina ta’mirining reja-grafigi (mashina markalari bo’yicha ta’mirlesh fondining tarkibi, soni va ta’mirleshni bajarish muddati);

rejalashtirilayotgan davrning boshlanishigacha mavjud bo’lgan moddiy vositalar hajmi;

avtomobil va boshqa turdagi jihozlar sarfining me’yorlari;

mashinaning joriy ta’mirini ta’minlash bo’yicha keltirilayotgan avtomobil jihozlari zahira to’plamining imkoniyatlari;

keltirilayotgan avtomobil jihozlari zahira hajmini belgilanganidan pasaymasligi;

ko’chma ta’mirlesh ustaxonasining detallarini tayyorlash va tiklash imkoniyatlari.

Moddiy-texnik ta’minotning asosiy turi mashinalarni avtomobil jihozlari bilan ta’minlash bo’lib, u tinchlik davrida va urush vaqtida ham boshqaruv tuzumining ta’minot rejasiga asoslanib amalga oshiriladi.

Agregat uzellar, ehtiyot qismlar va materiallarga talab nomeklatura va 1 va 2 to’plamlar bo’yicha ta’minlanadi.



ULARNING SONI AMALDAGI ME'YOR BO'YICHA TALAB QILINADI.

Dala sharoitlarida avtomobil texnikalari va zanjir tasmali mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va tayyor agregatlarda joriy ta'mirlash ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

Ko'chma ta'mirlash ustaxonasi zamonaviy ta'mirlash vositasi hisoblanadi. Uning tarkibiga ishlab chiqarish uskunalari va barcha turdagi avtomobil texnikalarini ta'mirlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va butlangan ehtiyot qismlar majmuasi kiradi.

Ustaxonada kuchlantiruvchi elektr qurilmasi mavjud bo'lib, u ustaxona agregatlarining ta'mirlash ishlarini bajarishda avtonom tok manbai bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

KO'CHMA TA'MIRLASH USTAXONASINING TARKIBI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

ZIL-131 avtomobil shassisiga o'rnatilgan chilangarlik – ta'mirlash ustaxonasi (ChTU) MRS-AT-M1;

ZIL-131 avtomobil shassisiga o'rnatilgan mexanik ta'mirlash ustaxonasi (MTU-M1) MRM-M1;

ADB -6120 bir o'qli IAPZ tipidagi yarim tirkamaga o'rnatilgan benzinli-yoyli payvandlash agregati (BYoPA);

ESB-4VZ bir o'qli 1-AP-1.5t tipidagi yarim tirkamaga o'rnatilgan benzinli ko'chma zaryadlash stansiyasi;

ZIL-131 maxsus avtomobili (chig'irli va ikki oyoqli yoyli-kranli ZIL-131 maxsus avtomobili); yuvish postlari, temirchilik, moylash va moy quyish ishlari, diagnostik-nazorat postlarining uskunlari.

MRS-AT-M1 chilangarlik-ta'mirlash ustaxonasi avtomobil texnikalarini dala sharoitida ta'mirlashda qismlarga ajratish va yig'ish, chilangarlik-to'g'rilash ishlarini bajarishga mo'ljallangan. Bundan tashqari, ustaxonaning uskunalari payvandlash, misgarlik-tunukachilik, duradgorlik, bo'yash, moylash va moy quyish ishlari hamda akkumulyator batareyalarini to'yintirish (zaryadlash), ta'minlash tizimi va elektr asbob-uskunalarini ta'mirlash va rostlash ishlarini bajarish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Remont voyennoy avtomobilnoy texniki. Moskva. Voenizdat. 1986 g.
2. Podvijnaya avtomobilnaya remontnaya masterskaya PARM-1M1. Rukovodstvo. Moskva. Voenizdat. 1985 g.
3. Remontno-slesarnaya masterskaya MRS-AT-M1. Rukovodstvo. Moskva. Voenizdat. 1980 g.
4. Remontno-mexanicheskaya masterskaya MRM-M1. Rukovodstvo. Moskva. Voenizdat. 1980 g.
5. Razvertvaniye podvinoy avtomobilnoy masterskoy PARM-3M. Metodicheskoye posobiye. Samarkand. SVVAKU.1986 g.



**DUNYODA ZAMONAVIY LOKAL URUHLARDA TEXNIKA QUROL-ASLAHALAR
O‘RNI**

Jamolov Azizjon Axmatovich,

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
artilleriya sikli katta o‘qituvchi, podpolkovnik

Amrullayev Said Inatullayevich,

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi artilleriya
sikli sikl boshlig‘, podpolkovnik Samarqand shahri.

“Xozirgi taxlikali zamonimizda qurol-aslaha va harbiy texnikalarimizni texnik sozligi bizning g‘alaba sari etaklovchi qudratli kuchimizdir”.

“2022-2026 yil taraqqiyot strategiyasida rejalashtirilgan zamonaviy qurol-aslaha va hozirgi kun talablariga to‘liq javob beradigan harbiy texnikalar bilan qo‘shinlarni butlash asosiy maqsadimizdir”.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolamda XXI asrga kelib butun jahon xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavf, ro‘y berayotgan jangovar harakatlarda zamonaviy qurol-aslaha va o‘q-dorilarni qanday qo‘llanilishi to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlangan.*

***Kalit so‘zlar:** qurol-aslaha, majmua, o‘q-dorilar, to‘qnashuv, jangovar xarakat, zahira, jangovar to‘plam, texnik xizmat ko‘rsatish, nimcha, zirh, yonuvchi, oskolkali.*

XXI asrga kelib davlatlar xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavf, ro‘y berayotgan jangovar harakatlarning ssenariysi hamda qo‘shinlarning jangovar qo‘llanilishi, zamonaviy qurol-aslaha va o‘q-dorilar takomillashuvi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Zamonaviy urushlar turli qoidalarga amal qiladi. Hatto “isyonchilar” qo‘lida aniq qurollar odatiy holga aylandi.

Ukraina, Liviya, Suriya va boshqa mintaqalardagi mojarolar shuni ko‘rsatadiki, kichik urushlar endi butunlay boshqacha qoidalarga muvofiq davom etmoqda. Yuqori aniqlikdagi va boshqariladigan qurollar sayyoramizdagi so‘ngi urushlarning atributiga aylandi.

Ukrainadagi urush, Liviya yadagi fuqarolar urushi, Suriya yadagi urush, Yamandagi va boshqa mintaqadagi qurolli to‘qnashuvlar - bularning barchasi kichik urushlar endi butunlay boshqacha qoidalar asosida ketayotganidan dalolat beradi.

Boshqaruv qurollari faqat imtiyozli jangarilar uchun mavjud bo‘lgan vaqt izzsiz o‘tdi. Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda ATGM, ATGM, shuningdek MANPADS deyarli har bir zarbadan chiqib ketadi ...

Agar biz kichik urushlar yoki agar xohlasangiz, qurolli to‘qnashuvlarda ular qanday qurol-yarog‘ ishlatayotganiga diqqat bilan qarajak, aniq va boshqariladigan qurol kabi qurollar so‘nggi barcha urushlarning bevosita atributiga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Bizning sayyoramizda bu elektron urush tizimlari, razvedka, aloqa va jangovar nazoratni hisobga olmaganda.

Ilgari faqat dunyoning etakchi davlatlari uchun mavjud bo‘lgan narsa, hozirda sayyoramizdagi har qanday harbiy to‘qnashuvda faol ishlatilmoqda.

Yaman, Suriya, Donbass va hatto Isroildagi jangovar harakatlar haqidagi xabarlarini ko‘rib chiqib, biz bu harbiy to‘qnashuvlarning ma‘lum bir naqshini va o‘xshashligini sezishimiz mumkin.

Tankga qarshi boshqariladigan qurol tizimlari, ehtimol, urushning asosiy atributiga aylangan.

Bu qurolli to‘qnashuvlar taraflari ishchi kuchi va texnikaning asosiy yo‘qotilishlaridan tashqari, aniq ATGM va ATGMdan kelib chiqadi.

Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar muammolari bilan qiziquvchilar, yaxshi biladilarki ular Yamanda Saudiya Arabistonining harbiy texnikasini boshqariladigan raketalar bilan yoqib yuborishadi. Zamonaviy harbiy texnika, u Rossiyaning KamAZ-63968 tayfuni bilan bir xil himoya standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, Saudiya Arabistoni bilan xizmatda bo‘lgan Amerika zirhli mashinalari, xuddi rus tayfuni kabi, o‘q va minalardan mukammal himoya qiladi, lekin ular ATGM va ATGMdan mutlaqo himoyasizdir.

Suriya yadagi urush ham bundan mustasno emas edi. Ushbu qurolli to‘qnashuv paytida Suriya muxolifati deb atalgan jangarilar, shuningdek, terrorchi guruhlar jangarilari, Suriya armiyasining



harbiy texnikasida ATGM va ATGM ishlatilgani tasvirini bir necha bor namoyish qilishdi va shuni ta’kidlash kerakki, bu turdagi qurol hukumat bo’linmalariga katta zarar etkazdi.

Bugungi kunga kelib, bu hududlar Suriyada, ayniqsa Idlibga yaqin yoki AQSH nazoratidagi Al-Tanfddagi terrorchilar anklavi bilan chegaradosh hududlarda qolmoqda, u erda muxolifat jangchilari va terrorchilar ATGM va ATGM yordamida pistirma qilinadi.

Bu holatlarni hisobga olgan holda, MRAP kabi engil zirhli g’ildirakli mashinalarni ATGM va ATGM kabi boshqariladigan qurollar zarbasidan himoya qilishni ta’minlash zarurati tug’ildi.



Bugungi kunga kelib, zirhli mashinalar uchun faol himoya tizimlarini ishlab chiqaruvchilarning hammasi ham o’z ishlanmalarini engil g’ildirakli zirhli mashinalarga o’rnatishga tayyor emas.

Balki, engil zirhli mashinalar uchun faol himoya tizimlari sohasidagi yagona echim IBD Deisenroth engineering nemis kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. Ularning KAZ AMAP-ADS tizimini engil avtomobillarda ishlatishga moslashtirish mumkin.

Rossiyaning zirhli transport vositalarini faol himoya qilish tizimiga kelsak, “Armata” loyihasi doirasida yaratilgan qurollarning eng zamonaviy “Afg’onit” rusumi o’rnatilgan va shu sabablarga ko’ra, “Afg’onit” KZ. keng qo’llanilmaydi.

Menimcha, Rossiya armiyasi xizmatiga o’tadigan MRAP kabi harbiy uskunalar, odatda, “Afg’onit” KAZ kabi faol himoya tizimlari bilan jihozlangan bo’lishi kerak. Bu zamonaviy qurolli to’qnashuvlar natijasida paydo bo’lgan tendentsiyalar bilan bog’liq, chunki, masalan, Suriyada, ATGM va ATGMlarning KamAZ-63968 tayfunidagi Rossiya harbiy politsiya bo’linmasiga zarba berish ehtimoli, yo’lbars kuchlari maxsus kuchlarining 25 -bo’linmasining tanki “, bu hujumlarda o’t o’chirishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, Suriya muxolifatining xuddi shu jangarilari bilan xizmat qilayotgan, nishonga avtomatik joylashish tamoyillaridan foydalanmaydigan, boshqariladigan qurollar ko’p. Xuddi o’sha “TOW” ATGMi, terrorchilar bizning vertolyotlarimizni urib tushirishgan, simlar ustidan o’q otilganidan keyin tuzatiladi. Suriyada asosiy ishni bajaradigan bizning armiya aviatsiyasi bunday quroldan himoya vositasiga ega emas. Issiqlik tuzoqlari, radio o’chirish moslamalari, nishon simulyatorlari, boshni lazer bilan yoritish - bularning barchasi boshqariladigan qurollarga qarshi foydasiz, shundan so’ng raketaning uchishini o’q otuvchi tuzatadi.

Xulosa: tariqasida hozirgi tahlikali zamonda yashayabmiz ekan bosqichma-bosqich O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo’shin va tuzilmalarini zamonaviy qurol-aslaha va o’q-dorilar bilan butlash va ta’minlash darkor.

Xozirgi vaqtda ishlatishda bo’lgan qurollarni zamonaviy qurollarga taqqoslab modernizatsiya qilishni yo’lga qo’ysak uning ichhamligi, otish uzoqligi, o’q-dorilarini sig’imi, to’liq vazni va qo’llash uchun qulay bo’ladi degan umiddaman.

Zamonaviy qurolli to’qnashuvlarning barcha tendentsiyalari nafaqat Rossiya armiyasining tungi vaqtda, jangovar operatsiyalarni o’tkazish imkoniyatini ta’minlash uchun mo’ljallangan texnik vositalar nomenklaturasiga yangi talablar qo’yadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. <http://opk.com.ua>
2. Planet Labs Photograph © 2021
3. Human Rights Watch
4. www.ссб.гов.тр
5. авиатионсв.com



**BIZNING MAQSAD-YUKSAK MA'NAVIYATLI, INTELEKTUAL SALOHİYATGA
EGA BO'LGAN SERJANTLARNI TAYYORLASH**

Komilov Xayotillo Omatilloevich

Kichik mutahassislarni tayyorlash markazi
Moddiy ta'minot sikli katta
yo'riqchisi III-d-r serjant

***Annotasiya:** ma'nafiyatni va ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli xal etilsa, ijtimoiy siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.*

***Kalit so'zlar:** ijodkor, ilm-fan rivoji har bir davrda o'ziga yarasha ma'lum darajada taraqqiy topib, rivojlanib borgan.*

Mamlakatimiz tomonidan 30 yillik mustaqil taraqqiyot davrida bosib o'tilgan shonli yo'lga nazar tashlar ekanmiz, xalqimizning siyosiy ma'naviy-axloqiy va ishbilarmonlik sifatlarining keng ko'lamliligi va mustahkamligi, uning buyuk ajdodlarimiz an'alariga sodiqligi hamda huquqiy, demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni qurish borasida oldida turgan vazifalarni chuqur anglab olgani bilan faxrlanamiz.

Ma'lumki, halqimizga xos bunday yuksak sifatning uyg'unligi ijodkor, ma'nan boy, fidokor va qobiliyatli shaxslarning kamol topishida muxim o'rin tutadi. Qurolli Kuchlarimizda ham ko'plab bunday shaxslarni uchratish mumkin. Bunga professional tayyorgarlikka ega bo'lgan va har taraflama rivojlangan, bilimdon va fidokor serjantlar yorqin misol bo'la oladi.

Bugungi serjantlar boshqalardan qanday jihatlari bilan ajralib turadi?

Avvalo, o'zini harbiy xizmatga to'la baxsh etishi bilan. Bu tabiiy jarayon, chunki harbiy xizmat fidokorlikni, bor kuchini ayamay sarf qilishni va harbiy xizmatchining eng asosiy vazifasi mustaqil Vatanimizni ishonchli himoya qilishga o'zini baxshida etishni talab qiladi. Harbiy xizmat serjant uchun uning ichki moxiyatiga, hayot mazmuniga, mentaliteti asosiga aylanishi, uning har bir fikri va harakatiga singishi lozim.

Bizning moddiy ta'minot yo'nalishidagi serjantlarimiz - bu harbiy soha professional, puxta bilimlarga ega va tashabbuskor inson bo'lishi kerak. Uni yuksak siyosiy bilimdonlik, umumiy va haqiqiy madaniyat ajratib turadi. U o'z faoliyatining yuksak mazmun-mohiyatini biz uchun eng aziz va qadrlil bo'lgan mustaqil Vatanimiz ximoyasiga muntazam jangovor shaylikda, deb biladi. Unda qat'iylik va tirishqoqlik, fidokorlik va mardlik, sabot-matonat, murakkab vaziyatlarda o'zini boshqara olish mahorati va buyuk ajdodlar an'alariga sodiqlik mujassam. Uning tashqi qiyofasi va ichki moxiyati harbiy va kasbiy mahorat ishni zamonaviy rivoji va biz yashayotgan davrda qo'yilayotgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Milliy armiyamiz va uning jangovar qudrati bilan haqli ravishda faxrlanar ekanmiz, birinchi navbatda Qurolli Kuchlarimiz mustahkamligi va jangovar qobiliyatining asosi sifatida yuqori malakali va salohiyatli, bilimdon va mutaxassisligi bo'yicha professionallik darajasi yuqori bo'lgan serjantlar tarkibini tushunamiz.

Moddiy ta'minot bo'linmalarining serjantlar tarkibining taktik va maxsus tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi BSHB 2010 yil 7 apreldagi 84-sonli va 11 apreldagi 123-sonli buyruqlari bilan belgilab qo'yilgan.

Moddiy ta'minot xizmatlari va bo'linmalarida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xarbiy va kasbiy tayyorgarlik darajasiga nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagi xususiyatlarga e'tibor berishimiz zarur:

-moddiy ta'minot yo'nalishida komandirlik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarini tashkillashtirish bo'yicha o'ziga xos qiyinchiliklari;

-harbiy pedagogika va psixologiya bo'yicha bilim darajasi ;

- moddiy ta'minot yo'nalishidagi harbiy xizmatchilar bir necha turdagi kasbiy tayyorgarlik darajasiga ega bo'lishi;(masalan oshpaz-haydovchi- o'qchi va hokazo)

Moddiy ta'minot bo'linmalari komandirlari asosiy tarkibini serjantlar tashkil etadi. Shaxsiy tarkibning ta'lim va tarbiya sifati, intizomi va uyushqoqligi, umuman olganda bo'linmalar va qismlar jangovar shayligi ularning tayyorgarlik darajasi komandirlarning tashabbuskorligi va bilim saviyasiga bog'liq.



Dunyoda tajovuzkor urushlar va harbiy ziddiyatlar mavjudligi davlatimizning mudofaa qudrati, uni xavfsizligini ta'minlash, har qanday tajovuzni yakson qilishga qodir Qurolli Kuchlar tayyorgarligiga katta e'tibor berishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ijtimoiy roli va tarixiy maqsad, vazifalari yuqori darajadagi ogohlik, har qanday tajovuzkorlik harakatlarini qaytarishdan iborat. Bu armiya yangi tipdagi armiya bo'lib, mustaqillikning yuksak ildizlariga, mamlakatning iqtisodiy qudrati va o'z xalqiga tayanadi.

Jangovar faoliyat davomida harbiy xizmatchilarda quyidagi axloqiy-jangovar sifatlar shakllanadi va mustahkamlanadi:

intizomlilik, mustaqillik, tashabbus, qat'iylik, dadillik, tirishqoqlik, chidamlilik, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, muvaffaqiyatli zamonaviy jang olib borishga psixologik tayyorlik. Talabchan komandir uchun jiddiylik va kamchiliklarga bo'lgan murosasizlik, o'z talablarini hayotga tatbiq etishda tirishqoqlik va qat'iyatlilik, harbiy xizmatchilarni topshirilgan vazifani bajarishlarida shaxsiy javobgarligini belgilash, vazifa bajarilishini qat'iy nazorat

qilish kabi sifatlar xos bo'lishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan muhim talab-bo'ysunuvchilar mansub bo'lgan millatning o'ziga xosliklari, urf-odatlarini, an'analarini bilish va hisobga olishdir. Har xil millat vakillaridan iborat jamoada serjantda alohida ziyraklik, ehtiyotkorlik va prinsipiallik, do'stlikni mustahkamlash haqida g'amxo'rlik namoyon bo'lishi kerak.

Serjantlar ishidagi muvaffaqiyat ko'pincha ularning o'z ishlari, bo'ysunuvchilarining ishlari va qilmishlari uchun shaxsiy burch va javobgarliklarini anglashlariga bog'liq bo'lib, ular o'z bilim va tajribalarini takomillashtirishlari kerak, ularga umumharbiy nizomlarda berilgan huquqlardan oqilona foydalanishlari kerak.

Agar harbiy qism va bo'linma yaxshi tayyorlangan va tartibli bo'lsa, har bir harbiy xizmatchi o'zining majburiyatlarini aniq bilsa va bekamu-ko'st bajarsagina jangovar shay holatda bo'ladi. Bunda askarlarni harbiy mahoratga shaxsan

Shaxsiy tarkibning o'qitilishi bu-ta'lim beruvchi va tahsil oluvchilar o'rtasidagi davlat manfaatlarini himoya qilish yo'lida axloqiy-jangovar, bilim va amaliy ko'nikmalarni qamrab oluvchi maqsad sari yo'naltirilgan va tizimli tashkillashtirilgan jarayon.

Mashg'ulot davomida qatnashuvchilar tarkibiga mashg'ulotni o'quv joylarida va nuqtalarida tashkillashtirish chog'ida uslubiy yondashuv tartibi, o'quv savollarini yoritish jihatlari, amaliy mashg'ulotlarni olib borishda o'rganuvchilardan talab qilinuvchi elementlarning to'g'ri bajarilishi, xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi va tahsil oluvchilarni baholash yuzasidan alohida uslubiy yo'nalish berib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. "Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili". - T.: O'zbekiston,1995.-32 b.
2. J.G.Yo'ldoshev. "Ta'lim yangilanish yo'lida". T.: "O'qituvchi", 2002,- 207 b.
3. R.Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. "Ta'limda innovasion texnologiyalar" (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: "Iste'dod" jamg'armasi,2008 -180 b.
4. Innovasiya: Fan, Ta'lim, Texnologiya. № 2/2016.
- 5.Moddiy ta'minot bo'linmalarining serjantlar tarkibining taktik va maxsus tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi BSHB 2010yil 7 apreldagi 84-sonli va 11 apreldagi 123-sonli buyruqlari.



MILLIY TAOMLAR – MILLIY ARMIYAMIZGA AHAMIYATI

Rafiyev Djamxo'r Rabbimqulovich
O'R QK Kichik mutahassislarni tayyorlash
Markazi moddiy ta'minot sikli katta
o'qtuvchisi, podpolkovnik

***Annotatsiya:** yuqori texnologiyalarga asoslangan yalpi axborotlashuv asrida ilm-fan, ishlab chiqarishning yuksak taraqqiyoti zamon talablariga mos ravishda raqobatbardosh kadrlar va harbiy kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalaridan birdir.*

***Kalit so'zlar:** harbiy talim, oziq-ovqat, o'quv-moddiy baza, dala oshxonasi, non, malaka, bilim.*

Bugungi kunda O'zbekiston hududida yashaydigan boshqa millatlar taomlari ham o'zbeklar tomonidan sevib iste'mol qilinadi va tez-tez tayyorlanib turiladi. Shu sababli ham bitiruv loyiha ishida o'zbek, tojik, rus, ukrain yoki boshqa millat taomlari deb ajratilmasdan, O'zbekiston hududida yashaydigan millatlar vakillari va o'zbek milliy taomlari birga berilgan. Lekin, dasturxonga uzatish tartibiga qarab birinchi navbatda sovuq taom va gazaklar, suyuq taomlar, ikkinchi taomlar, hamda shirin taomlar va ichimliklar texnologiyalari keltirilgan.

Bitiruv loyiha ishida keltirilgan ma'lumotlar resepturalar to'plamini takrorlamasligi uchun tayyorlashga xos umumiy xususiyatlar ko'rib chiqilgan va faqat ba'zi bir taomlarni tayyorlash texnologiyasi keltirilgan.

O'zbek oshxonasi

O'zbek milliy taomlarining ya'ni palov, lag'mon, manti va boshqa taomlarning tayyorlanishi bir qancha Osiyo davlatlarida tayyorlanadigan taomlarga o'xshash. Ammo, O'zbekistonda ushbu taomlarni tayyorlashda o'zining alohida xususiyatlariga ega.

O'zbek oshxonalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar oshpaz deb ataladi. Shu bilan birga, malakali erkak oshpazlar palov tayyorlash bo'yicha mutaxassis hisoblanadilar.

Tarixi

Buyuk ipak yo'lining savdo-sotiq bo'yicha asosiy chorraxalaridan birida joylashgan Toshkent, Farg'ona va Samarqandga bir qancha davlatlar madaniyatining kirib kelishi O'zbek oshxonasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, zamonaviy o'zbek oshxonasi o'zining xilma-xil mazadagi taomlari bilan 120-150 yillar ilgari tashkil topgan. Aynan o'sha yillarda O'zbekiston hududiga yevropa davlatlari oshxonasining taomlarini tayyorlashda foydalaniladigan oziq-ovqat va qandolatchilik mahsulotlari kirib kelib kelaboshlagan.

Ahamiyati

O'zbek oshxonasi taomlari osiyo urf-odatlar va reseptlari asosida sezilarli darajada boyigan bo'lishiga qaramay, o'zining alohida hususiyatiga ega.

O'zbek oshxonasining taniqli va dong'i dunyoga taralgan taomlaridan biri palovdir. O'zbek va tojik oshxonasida go'sht va guruchdan qo'shib tayyorlanadigan taomlar alohida o'rin tutadi. Ozarbayjronda esa buning aksi o'laroq, go'sht va donli mahsulotlardan alohida-alohida taomlar tayyorlanadi. Umuman olganda, sabzavot va donli mahsulotlar o'zbek oshxonasida tayyorlanadigan taomlar uchun asosiy ajralmas tarkibiy qism hisoblanadi. O'zbek oshxonasida baliq va uy parrandasidan tayyorlanadigan taomlar aytarli darajada o'rin egallamaydi. Tuxum, baqlajon va qo'ziqorin mahsulotlaridan ham kamroq foydalaniladi.

Qandolat va non mahsulotlari ham ancha turli-tuman. Non mahsulotlaridan eng asosiysi va dovrug'i taralgani – bu tandirda yopilgan nondir. Ular ikki xil turga bo'linadi.

obi-non - xamirturush va tuzli suvda tayyorlanadi.

patir-non – saryog' yoki mol yog'i qo'shib tuzli suvda tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtda o'zbek taomlarini tayyorlashda tabiiy gaz, elektrpechlar hamda boshqa oshxona anjom va jihozlaridan foydalaniladi.

Shu bilan birga, taomlarni an'anaviy usullarda ham tayyorlab kelinmoqda. Oshxona anjomlaridan eng asosiysi - bu qozondir. Uning har-xil turlari va o'lchamlari mavjud. Tandir - buloydan yasalgan pech - uni O'zbekistonning hamma yerida uchratish mumkin, ayniqsa qishloq oshxonasini tandirsiz tasavvur qilish qiyin.



Mavzuni dolzarbligi

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Qurolli Kuchlar oliy bosh qomondonining, miliy armiyamizga xam ko'proq, milliy taomlarni kiritilishi, muxum axamiyatga ega ekanligini bildirib o'tdilar. Bugungi kunda harbiy xizmatchilarimiz uchun sanitar qoydalariga javob beradigan sifatli miliy taomlar tayyorlanishi xam bejis emas.

Shu jumladan prezidentimizning Qurolli Kuchlar oliy bosh qomondonining tashabusi bilan bugungi kunga kelib, miliy armiyamizga “Autsorsing” tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oziq-ovqat ta'minotini yanada takomillashtirish to'g'risida vazirlar maxkamasining 2019 yil 3 dekabr kunidagi 966 sonli “**O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oziq-ovqat ta'minotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**” qo'shma qarori chiqdi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga joriy etildi. Qurolli Kuchlarimiz, harbiy xizmatchilariga asosiy va qo'shimcha oziq-ovqat payoklarini tarqatishda bir turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini boshqasiga almashtirish me'yorlari tasdiqlandi.

Ushbu miyorlarda oziq-ovqat mahsulotlarga ishlov berish va taom tayyorlash texnologiyasi Qoidalari, mamlakatda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyo va yarim fabrikatlarni keng ishlatish asosida harbiy xizmatchilar uchun xilma-xil taomlarni tayyorlash resepturasi belgilab berildi. Shuningdek taomlarga qo'shiladigan oziq-ovqat mahsulotlarni tarkibi, oziqaviy o'simlik va hayvonlardan kelib chiqqan qiymati, harbiy xizmatchilarni ovqatlanish rejimi va rejalashtirilishi, oziqa mahsulotlariga kulinar ishlov berish usullari, tavsiya qilinadigan taomlar xamda kulinar mahsulotlarni tayyorlash texnologiyasi o'z ichiga oldi.

Shu bilan bir qatorda Qurolli Kuchlarimizga, umumqo'shin payogi, uchuvchilar payogi, davolash payogi va maxsus operasiya kuchlari qismlari, maxsus-qidiruv razvedka vzwodlari va maxsus tez harakatlanuvchi qismlar shaxsiy tarkibi uchun payoklarini asosiy me'yorlari bo'yicha namunali taomnomani tuzish uchun taomlar kartotekasi keltirildi. Yana shu atib o'tish joizki O'zbekiston Respublikasi 2019 yildan boshlab xalqaro Armiya o'yinlarida “**dala oshxonasi**” musobaqasida qatnashib, nufuzli o'rinlarni olib kelmoqda, ushbu yuqori o'rinlarni olish assosiy sabablaridan biri, bizning dunyoga taratgan milliy taomlarimiz desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa.

Asososiy vazifalaridan shu belgilandiki zamonaviy talablarni, sanitariya normalari va qoidalarini hisobga olgan holda shaxsiy tarkibning sifatli va xilma-xil ovqatlanishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining doimiy jangovor shayligini ta'minlashning asosiy sharti deb hisoblandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2019 yil 3 dekabr kunidagi 966 sonli “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oziq-ovqat ta'minotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qo'shma qarori.

2. 2004 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida mahsulotlarga ishlov berish va taom tayyorlash texnologiyasi Qoidalarini tasdiqlash va amalga kiritish tug'risidagi 01-1/61/5/7/289-sonli qarori.

3. 2004 yil 6 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilar oziq-ovqat ta'minoti to'g'risidagi Qoidani tasdiqlash va amalga kiritish to'g'risidagi 877/8/175/149/365-sonli qarori.

4. 2004 yil 6 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi ovqatlanishini tashkillashtirish bo'yicha Yagona talablarni tasdiqlash va amalga kiritish to'g'risidagi 878/9/176/150/366-sonli qarori.



TIBBIYOT PUNKTI ISHINI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY QARASHLAR

Elmurodov Shuxrat Aktamovich,
OʻR QK Kichik mutaxassislar tayyorlash
markazi tibbiy tayyorgarlik sikli oʻqituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada, qoʻshinlar tarkibidagi tibbiyot punkti jangovar harakatlar davomida tibbiy evakuatsiyaning birinchi bosqichi sifatida ishtirok etadi. Shunga koʻra uning ishini samarali tashkil etish qoʻshinlar tibbiyot xizmati oldiga qoʻyilgan vazifalarni hal etishning muhim omili sifatida namoyon boʻladi. Maqolada tibbiyot punktining faoliyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit soʻzlar: *tibbiyot punkti, feldsher, sanitariya yoʻriqchi, evakuatsiya, eshelon, shifokorgacha tibbiy yordam, batalon, ommaviy sanitar yoʻqotishlar, tayanch dala gospitali, birinchi vrachlik yordami.*

Qoʻshinlar tarkibiga kiruvchi boʻlinmalar oʻzining tibbiyot punktida, ushbu tibbiyot punkti boʻlinma taʼminot boʻlinmalari qatoriga kiradi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

jang olib borayotgan hududlarda yaradorlarni izlab topish, ularni yigʻish hamda jang maydoni va ommaviy sanitar yoʻqotishlar oʻchogʻidan olib chiqish;

boʻlinmalardagi kasallarni erta faol aniqlash, birinchi tibbiy yordam va shifokorgacha boʻlgan tibbiy yordamni koʻrsatish, ularni keyingi bosqichga evakuatsiya qilish uchun tayyorlash;

sanitar-gigienik, epidemiyaga qarshi tadbirlar hamda ommaviy qirgʻin qurollaridan muhofaza qilish boʻyicha tibbiy tadbirlarini oʻtkazish;

joylashgan rayonlarni koʻrib chiqishni olib borish;

shaxsiy tarkibni tibbiy vositalar va tibbiy mol-mulkular bilan taʼminlash.

Boʻlinmada tibbiyot punkti boshligʻi boʻladi. Boʻlinma tibbiyot punktida – harbiy tibbiyot hodimlari xizmat olid boradi (*feldsherlar, sanitariya yoʻriqchilar*).

Boʻlinma tibbiyot punkti birinchi tibbiy yordam va shifokorgacha boʻlgan tibbiy yordamni koʻrsatish uchun «Dala feldsherligi» jamlanmasi, qoʻshinlar tibbiy sumkasi (QTS), «Steril bogʻlov vositalari» jamlanmasi B-1, «Shinalar» jamlanmasi B-2, Oʻpkani sunʼiy ventilyatsiya qilish uchun qoʻllaniladigan DP-10.02 markali qoʻl apparati, KI-4M kislorod ingalyatori, boshidan yaralanganlar uchun shlem-niqob, sanitar tasmasi va Sh-4 maxsus sanitar tasmasi, sanitar zambillar, sanitar-avtomobili hamda unga biriktiriladigan 1-AP-0,5 avtopritsepi va aloqa vositalari bilan jihozlanishi koʻzda tutilgan boʻlsada, yuqorida koʻrsatib oʻtilgan tibbiy vositalarning asosiy qismi bundan bir necha oʻn yillar oldin ishlab chiqarilganligi sababli evaziga ularning koʻpchiligi hozirgi zamon talablariga toʻliq javob bermaydi. Jumladan DP-10.02 markali oʻpkani sunʼiy ventilyatsiya qilish apparati, boshidan yaralanganlar uchun «ShR» shlem-niqobining rezina qismlari yillar davomida oʻz xususiyatini yoʻqotib, hozirda ishlatishga yaroqsiz holatga kelgan. Bundan tashqari «Dala feldsherligi» jamlanmasi va qoʻshinlar tibbiy sumkasi (QTS) tarkibiy tuzilishi oʻzgartirilmagan, mavjud dori vositalari eski nomlanishlari boʻyicha saqlanib kelmoqda.

Oxirgi yillarda olib borilgan jangovar harakatlar tibbiy taʼminoti tajribalariga koʻra, yarador va kasallarga tibbiy yordam koʻrsatishning zamonaviy tamoyillari amaliyotda qoʻllanib kelinmoqda. Bulardan baʼzilarini keltirib oʻtamiz:

- tibbiy yordamni jangovar harakatlar maydoniga iloji boricha yaqinlashtirish, yaʼni «shifokor - yaradorga» tamoyili;

- evakuatsiya qilishning imkoniyati boʻlmagan yaradorlar kontingentiga tibbiy yordamni amalga oshirish maqsadida ommaviy sanitar yoʻqotishlar oʻchogʻiga tibbiy xizmatning kuch va vositalarini yaqinlashtirish, yaʼni «joyda davolash» tamoyili;

- yarador va kasallarni tibbiy evakuatsiya bosqichlarida ortiqcha harakatlanishini imkon darajasida kamaytirishga yoʻnaltirilgan «jarohat olgan joydan - stasionarga koʻchirish» tamoyili.

Rivojlangan davlatlar tomonidan olib borilgan harbiy missiyalarning tibbiy taʼminlash tadbirlari AQSh qurolli kuchlari misolida koʻriladigan boʻlsa, ulardagi mavjud harbiy-tibbiy doktrinaga asosan harbiy harakatlar teatrida tibbiy yordam 4 ta eshelondan tarkib topadi.

1-chi eshelon «jang maydoni - batalon». Bunda batalon tibbiyot punkti tibbiyot xizmatining asosiy boʻlinmasi sifatida harakatlanadi;


2-chi eshelon «brigada jangovar komandasi». Bu bosqichda tibbiyot xizmatining asosiy boʻlinmasi sifatida oldingi jarrohlik komandasi harakatlanadi;




3-chi eshelon harbiy harakatlar teatrining fronti orti. Aslida bu to'liq qo'shinlar rayoni bo'lmasada, bu bosqichda «tayanch dala gospitali» ishtirok etadi;

4-chi eshelon harbiy harakatlar teatridan tashqaridagi statsionar gospitallar.

1-chi eshelon bo'linma tibbiyot punkti shaxsiy tarkibi tomonidan vrachgacha hamda birinchi vrachlik yordami ko'rsatiladi. Bo'linma tibbiyot punktida bo'linma tibbiyot xizmati boshlig'i, bo'linma tibbiyot punkti boshlig'i va tibbiy mutaxassislar korpusi, ya'ni vrach yordamchisi hamda jangovar tibbiy xodimlaridan iborat. Bundan tashqari har bir bo'linmada jangovar tibbiy xodimlar ko'zda tutilgan. Shunday qilib, bo'linmadagi jangovar tibbiy xodimlar etarlicha bo'lib tibbiy yordamning asosiy qismi ular tomonidan ko'rsatiladi.



1-rasm. Bo'linma tibbiyot punkti yerni kovlash usulida joylashtirish varianti



2-rasm. Bo'linma tibbiyot punkti yerto'lada joylashtirish varianti

Shartli belgilar: 1- «DF», QTS, KI-4, DP-10 lar; 2-suv uchun idish; 3- qo'l yuvgich; 4- B-1 va B-2 jamlanmalari; 5- isitish pechi; 6- parvarish ashyolari; 7- skameykalar; 8- zambil tagligi

XULOSA

Qo'shin tarkibidagi bo'linmalar tibbiyot punktining tinchlik davridagi hamda jangovar harakatlar davomidagi vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi tadbirlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bo'linmalardagi tibbiy xodimlarning tabelli tibbiy mol-mulklari tashqi ko'rinish va tarkibiy tuzilish jihatidan yangilanishi, zamonaviy dori-darmon, tibbiy ashyolar bilan ta'minlanishi hamda ulardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalar doimiy ravishda shakllantirib borilishi zarur.

2. Yarador va kasallarni jang maydonidan olib chiqish, evakuatsiya qilish mobaynida ularning xavfsizligini ta'minlay oladigan hamda yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan zirhli tibbiy texnikalar (bronetransporter) namunalarini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Корнюшко И.Г. Избранные вопросы организации медицинского обеспечения вооруженных сил зарубежных государств. Учебное пособие. Москва. 2014 г.
2. Организация и тактика медицинской службы. С.Петербург. 2005 г.



ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ядгаров Жамшид Нарзиевич

ЎР ҚК Кичик мутахассислар тайёрлаш
маркази бошлиғининг ўқув-услубий ишлар
бўйича ўринбосари, подполковник

Аннотация: Ушбу мақола етук ва компетентли ҳарбий хизматчи шахсини шакллантиришга йўналтирилган бўлиб, ҳарбий хизматчиларнинг жисмоний, руҳий ва касбий жиҳатдан тайёргарликлари юқори даражада бўлишини таъминлашга қаратилган.

Калит сўзлар: Компетентлик, креатив, инновацион, коммуникатив, профессионал, ахлоқий баркамол, меҳрибон, талабчан, маънавий пок, қаноатли, ростғўй, садоқатли, покиза, зийрак, андишали, вазмин, сабр-бардошли.

Annotation: The article focuses on the formation of a mature and competent serviceman who provides a high level of physical, mental and professional training of servicemen.

Key words: Competence, creative, innovative, communicative, professional, morally competent, king, demanding, spiritually pure, contented, honest, loyal, clean, intelligent, thoughtful, calm, patient.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется формированию зрелого и компетентного военнослужащего, обеспечивающего высокий уровень физической, умственной и профессиональной подготовки военнослужащих.

Ключевые слова: Компетентность, творческий, новаторский, коммуникативный, профессиональный, морально громадный, добрый, требовательный, духовно чистый, довольный, честный, лояльный, чистый, умный, вдумчивый, спокойный, терпеливый.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М. Мирзиёев айтганидек: “Ҳеч қачон унутмайлик, гўзал ва бетакрор Ўзбекистон барчамизники экан, унинг тақдири ва келажаги учун барчамиз масъулмиз”.

Бу борада шахсининг муайян таълим йўналиши ёки мутахассислиги бўйича олган билим, малака ва кўникмалари ҳамда шаклланган шахсий хислатларини меҳнат фаолиятида муваффақиятли қўллаш олиши унинг компетентлигини намоён этади.

Касбий компетентлик касбий билимлар, кўникмалар йиғиндиси, шунингдек, касбий фаолиятни амалга ошириш усуллари бўлиб, улар -ижтимоий, махсус, психологик, методик, инфорацион креатив, инновацион, коммуникатив, шахсий, технологик ва аутокомпетентлик йўналишида ўзига хос таъсир кучига эгадир.

Компетентлик ҳарбий хизматчиларнинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятларини амалга ошириш учун зарур булган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллаш олиши билан ифодаланади.

Педагогик фаолият жараёнида, таълим олувчилар тегишли билим, кўникма ва малакаларга эга бўладилар. Шу билан бир вақтда уларнинг тафаккури ривожланади, иродаси ва характери чиниқади, жанговар вазиятларда ҳаракат қилиш учун руҳий тайёргарлиги шаклланади. Бу эса ўз навбатида кенг тажрибалардан унумли фойдаланиш ва илғор технологияларни қўллаш, замон талаблари асосида, ҳарбийхизматчиларнинг ўз профессионал, назарий ва амалий билимларини узлуксиз ошириб бориши, касбий компетентлигини шакллантириш қодаларини назарда тутати. Касбий компетентлик ҳарбий хизматчиларнинг касбий фаолиятини ташкил этиш жараёнида ҳаётини кўникмаларни эгаллашларига ҳам имкон беради.

Ҳарбий хизматчилар касбий фаолияти давомида қуйидагиларни удалай олишлари лозим:

- назарий ва амалий билимларини узлуксиз ошириб бориши, ўзининг дунёқараши, билим ва тажрибасини доимий равишда кенгайтириб, янги билимларни ўзлаштириши, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб, янги ахборотларни олиш, илғор тажрибаларни ўрганиши;

- хизмат бурчини бажаришга виждонан ёндашиб, ватанга сидқидилдан хизмат қилиш, моддий ва маънавий бойликларни асраб-авайлаш, миллий қадриятларга ҳурмат билан мунособатда бўлиш;



- юксак маънавий-ахлоқий фазилатлар, касбий малака, мантикий фикрлаш қобилиятига эга бўлиш, сезгирлик, зийраклик, кузатувчанлик, билиш билан боғлиқ интеллектуал салоҳият ва ижтимоий фаолликни ривожлантириш;

- кенг билим ва юксак профессионал маҳоратга эга ҳарбий хизматчи бўлиш, ўзи мустақил равишда фавқулодда ва ҳар қандай кескин шароитларда ҳам ностандарт қарорлар қабул қила олиши;

- ўз касбий билимдонлигини доимий тарзда ошириб бориб, ҳарбий санъатни ўрганиши, мустақил тарзда ҳарбий қурилиш, ҳарбий тактика ва стратегия, ҳарбий бошқарув ва касб одобига оид илмий адабиёт ва оммавий нашрлардан фойдаланиш асосида юксак дунёқарашга эга бўлиши;

- умумҳарбий низомларга кўра, хизмат муносабатларида хушмуомалаликка амал қилиб, ҳарбий бурч ва мажбуриятларни бажариш, жамоат жойларида ўзини муносиб тутиши, шахсий хулқ-атворини назорат қилиб бориши;

- хорижий тилларни яхши ўзлаштириш, хорижий тилда турли жанрдаги (телекўрсатув, радио эшиттириш, эълонлар, янгиликлар ва ҳ.к.) аудио ва видео матнларни эшитиб, асосий маъносини тушуниб муҳокама қила олиши, ҳар қандай оғзаки нутқни тинглаб тушуниши;

- руҳан тетик ва жисмонан бардам, хушёр, доимо огоҳ бўлиш, иродасини чиниктириб бориши, оғир дамларда сабр-бардошли бўлиш, хизмат ва касб сирларини сақлаш;

- касбий фаолиятнинг жараён, ҳодисаларини таҳлил этишга имкон берувчи фикр доираларини кенгайтириши ва жуда кўп учрайдиган ностандарт вазиятларда мустақил қарор қабул қилиши;

Юқорида айтилган мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, касбий компетентликни шакллантиришда ҳарбий таълим жараёнини ҳам мазмунан, ҳам шаклан ўзгартириш, бунда таълим олувчиларга фақат маълум бир компетенциялар бўйича билим бериш эмас, балки ҳарбий таълим жараёни давомида фаолият олиб боришни таъминлаш назарда тутилади.

Фан ва техниканинг ривожланиши, Қуролли кучларнинг замонавий ва мураккаб жанговар техника, қурол-яроғлар билан таъминланиши, янги таълим технологияларининг яратилиши ва бошқа шу каби ҳозирги замонга хос ўзгаришлар таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан тобора янги талаблар қўймоқда. Бу эса ўз навбатида касбий компетентликни ривожлантиришни талаб қилади.

Ҳарбий таълим тизими самарадорлигини оширишда касбий таълим йўналишларини тўғри белгилаш, лойиҳалаштириш ва жорий этишни самарали амалга ошириш, таълимнинг моддий-техникавий базасини мустаҳкамлаш, таълим муассасаларини юқори малакали педагог ва муҳандис-педагог ходимлар билан таъминлаш, таълим муассасалари ва меҳнат бозори ўртасида узвийликни таъминлаш, таълим-тарбия тизимида янги илмий-услубий ёндашувларнинг киритилишига жиддий эътибор бериш талаб этилади.

Хулоса: ўрнида айтиш мумкинки, бу каби вазифаларнинг сўзсиз бажарилиши эса мамлакатимизда адолатли демократик жамиятни барпо этишга ўзининг бекиёс ҳиссасини қўшади. Ҳар бир шахснинг компетентлигини ривожлантириш жараёни индивидуал бўлиб, ўзига хос хусусиятга эгадир. Компетентиявийлик кенг тушунча сифатида онгли англаган ҳолда ҳарбий хизматчиларнинг ўз профессионал, касбий вазифаларини бажаришга бўлган назарий ва амалий тайёрлигини кучайтириш ҳамда ватанпарварлик туйғусини оширишда инновацион фаолиятнинг имкониятларидан самарали фойдаланиш, энг муҳими комил инсонга хос хусусиятларини ҳамда ахлоқий-маънавий фазилатларини тарбиялаш муҳим аҳамитга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўқитувчи ва мураббийлар куни”га бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 30 сентябр 2020 йил.

2. Сатиб-Алдиев А. Мулоқотни ташкил этишнинг психологик-педагогик аспектлари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: ТООҚБЮ, 2012.

3. Сатиб-Алдиев А. Офицер-ўқитувчининг педагогик маҳорати [Матн]: дарслик – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси, 2019.

4. Этикетнинг олтин китоби. – Т.: Янги аср авлоди, 2013.

5. “Интерфаол усуллар” “Халқ таълими” журнали Тошкент – 2008 йил. № 3

6. “Таълимда интерфаол усуллардан фойдаланиш”, Бошланғич таълим журнали 2009 й., № 2.



KIMYOVIY XAVFLI OBYEKTLAR

Abdullayev Farrux Ortiqaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi radiatsion,
kimyoviy, biologik muhofaza sikl yo'riqchisi
III – darajali serjant

Begboyev Abduvaxxob Rabbimqulovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi radiatsion,
kimyoviy, biologik muhofaza sikl yo'riqchisi
III – darajali serjant

Annotasiya: ushbu maqola respublikamizda kimyoviy korxonalar va zavodlar qolaversa xalq xo'jaligida, sanoatning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar o'z ishlab chiqarish jarayonida turli xil kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM)dan foydalanishda, favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kimyoviy, korxonalar, favqulodda, xlor, ammiak, fizikaviy kimyoviy, diffuziya, korroziya, fosgen, uglerod oksidi, tsianid kislota, dinitrofengon, dinitroortokrezol, etilenzlorgidrin, etilenzlorgidrin,

Sanoat-texnologik ishlab chiqarish jarayonida zararli va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalardan foydalaniladi. Masalan, vodoprovod stantsiyalarida suvni tozalash maqsadida ko'p miqdorda xlordan, sovutgichlarda (xolodilnik) ammiak yoki ishqor, kislota kabi kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalardan foydalaniladi. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar o'tkazgich quvurlarida, qurilmalarida, saqlanishi, transportirovka va ishlatilish jarayonlarida avariyalarga uchrab to'kilib (tarkalib) ketib, atmosfera havosiga tarqalishi mumkin bo'ladi.

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari ularning asosiy shikastlovchi holatiga o'tishini va shikastlovchi konsentratsiyasini belgilaydi. Asosan moddaning agregat holati, suvda va organik erituvchilarda eruvchanligi, uning zichligi, uchuvchanligi, konsentratsiyasi, bug'lanishi, to'yingan bug'ining bosimi, diffuziya koeffitsienti, qaynash va muzlash harorati, gidrolizlanishi, qovushqoqligi, issiqlikdan kengayishi va siqilishi, korroziya faolligi va boshqalar katta ahamiyatga ega. Bu barcha tavsiflar KTEZMning ishlab chiqarishda, ko'llashda, saqlashda va tashish paytida kimyoviy xavfiligini baholash hamda oldindan aniqlash (prognozlash) uchun kerak bo'ladi.

Ommaviy shikastlanish keltirib chiqaruvchi kimyoviy moddalar o'z ta'siriga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Birinchi guruh- asosan bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalar:

- a) kuchli achituvchi ta'sirli (xlor, fosfor-3-xlorid, fosfor oksixlorid);
- b) kuchsiz achituvchi ta'sirli (fosgen, xlorpikrin, oltingugurt xlorid).

Ikkinchi guruh - asosan umumiy zaharlash ta'siriga ega bo'lgan moddalar (uglerod oksidi, tsianid kislota, dinitrofengon, dinitroortokrezol, etilenzlorgidrin, etilenzlorgidrin).

Uchinchi guruh – bo'g'uvchi va umumiy zaharlovchi ta'siriga ega bo'lgan moddalar:

- a) kuchli achituvchi ta'sirli (akrilonitril);
- b) kuchsiz achituvchi ta'sirli (oltingugurt (2) oksid, vodorod sulfid, azot oksidlari).

To'rtinchi guruh- neyrotrop zaharlar, ya'ni asab impulslarining generatsiyasiga ta'sir qiluvchi moddalar (uglerod sulfid, fosfor organik birikmalar).

Beshinchi guruh- bo'g'uvchi va neyrotrop ta'sirga ega bo'lgan moddalar (ammiak).

Oltinchi guruh- metabolitik zaharlar (etilen ,).

Ettinchi guruh- modda almashinuvini ishdan chiqaruvchi moddalar (dioksin).

Kimyoviy xavfli ob'ektlarda ishlab chiqiladigan va foydalaniladigan ayrim kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning fizikaviy va zaharlilik xossalari :



Рис. 2. Использование аммиака в народном хозяйстве.

Аммиак - o'tkir xidli rangsiz gaz, suvda yaxshi eriydi, siqilgan holda saqlanadi va tashiladi. Yonuvchan gaz, doimiy alanga manbai bo'lganda yonadi, bug'lanib havo bilan portlovchi aralashma hosil qiladi, saqlanayotgan idishlari qizdirilganda portlashi mumkin.

Uglerod oksidi (is gazi) – rangsiz, xidsiz gaz, suvda yomon eriydi, siqilgan holatda rangsiz shaffof suyuqlik. Yonmaydi, ikki hajm is gazining bir hajm kislorod aralashmasi ochiq alangada portlaydi.

Sulfit ангидрид – o'tkir xidli rangsiz gaz, suvda eriydi, siqilgan holda saqlanadi va tashiladi. Yonmaydi saqlanayotgan idishlar qizdirilganda portlab ketishi mumkin.

Xlor – o'ziga xos o'tkir, bo'g'uvchan xidli sarg'imtir-yashil gaz. Suvda kam eriydi, xloroform, geptanda yaxshi eriydi, kuchli oksidlovchi, havodan og'irroq, yerto'la va pastkam joylarda to'planib qoladi. Siqilgan holda saqlanadi va tashiladi. Vodород tsianid (tsianid kislotasi) – achchiq bodom xidli, oson uchuvchan, rangsiz suyuqlik, suv, etil spirti va efir bilan yaxshi aralashadi, 25,7Sdan yuqori haroratda gaz holatda bo'ladi.



Рис. 1. Хлор как исходный продукт.

Suyuq holatda saqlanadi va tashiladi. Bug'larining havo bilan ma'lum nisbatda aralashmasi portlashi mumkin. Portlash kuchi trotildan yuqori, bug'lari doimiy alanga manbai bo'lganda yonadi.



Azot oksidlari va ularning aralashmalari – azot (1)oksidi (N_2O) –xushbuy xidli rangsiz gaz, qaynash harorati-88,5S; azot (11) oksidi (NO)- rangsiz gaz, qaynash harorati -151,8S; azot (1V) oksidi (N_2O_4)-utkir xushbuy xidli rangsiz suyuqlik, 15S dan yuqori haroratda sarik-kizgish tusga kiradi. NO_2 – kizil-qo'ng'ir rangli gaz, qaynash harorati 20,7S. Suvda yaxshi eriydi. 150Sda parchalanadi. Siqilgan holatda och-sariq suyuqlik. Portlovchan va yong'indan xavfli, yonuvchan materiallar bilan ta'sirlanganda ularning o'z-o'zidan alanganishiga olib keladi. Ayrim organik moddalar bug'lari bilan portlovchan aralashma hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ommaviy qirg'im qurollari va ulardan himoyalaniish. Toshkent -2007 yil.
2. Kimyoviy qo'shinlari serjantlar darsligi. Toshkent-2008 yil.
3. Radiatsion kimyoviy vaziyatlarni baholash o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2008 yil.
4. Kuchli ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2008 yil.



ПАХТА HOSILINI YETISHTIRISHDA MEXANIZATSIYALASHGAN ISHLAR DARAJASINI OSHIRISH VA PAХТА HOSILINI MASHINABOP QILIB YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abduraxmanov Bexrux Muxamadovich,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar

Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi,

Moddiy ta'minot sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Rustamov Otabek Norko'ziyevich,

O'R QK Kichik mutahassislarni tayyorlash

Markazi artilleriya sikli katta yo'riqchi III - darajali serjant

Annotatsiya: Yetishtirilgan paxta hosilini mashina yordamida yig'ishtirib olishga qaratilgan.

Resume: Machine harvesting of cotton.

Kalit so'zlar: Kultivator, ishchi organ, g'oz qator oralari, paxta dalasi, paxta terish mashinasi, mexanizatsiyalashgan ishlar.

Kirish: O'zbekistonda qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri paxtachilik hisoblanadi. Keyingi yillarda paxta yetishtirish va yig'ishtirib olishda qo'l mehnatining salmog'i ancha muncha oshgan, jumladan paxta kabi bir qator ishlar bilan birga 95% dan ko'p miqdordagi yetishtirilgan hosil qo'l kuchi yordamida bajarilmoqda.

Paxta yetishtirishda mexanizatsiyalashgan ishlar darajasini oshirish uchun birinchi navbatda ushbu masalaga kompleks yondashish kerak, bunda qo'yidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchi paxta yetishtiriladigan maydonlar yiriklashtirilishi lozim, chunki zamonaviy traktorlar keng qamrovli agregetlar tarkibida ishlatiladi. Keng qamrovli agregetlarning ish unumi yuqori bo'lsada, ularning ishlashi uchun 15...20 metr kenglikda qayrilib olish polasalari bo'lishi talab etiladi. Demak, biz keng qamrovli agregatlarni o'lchami 25...50 gektarli uchastkalarda ishlatsak, qisqa agrotexnik muddatlarda sifatli mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarib, yetarli samaradorlikka erishishimiz mumkin.

Ikkinchi paxta ekiladigan maydonlarni aylanma pluglar yordamida shudgorlash sifatli va o'z vaqtida bajarilsa, mehnat va yoqilg'i sarfidan 20...30%gacha ularni ekishga tayorlashda iqtisod qilish mumkin.

Uchinchi yerlarni ekishga tayorlashda biro'tishda ekishga tayorlaydigan kombinatsiyalashgan aktiv ishchi organli agregetlardan foydalanilsa, mehnat va yoqilg'i sarfidan 15...20%gacha iqtisod qilinadi va tuproqning namliginiga yaxshi sharoit yaratiladi.

To'rtinchi chigit qobiqlantirilgan xolatda donalab ekilsa, nafaqat yaganalashdan voz kechiladi, balki har gektaridan 70...100 ming so'm iqtisod qilinishi bilan birga bir teks ko'chat olinib, 50%gacha urug'lik chigit sarfi kamayadi.

Beshinchi tomchilatib so'g'orish paxta yetishtirishda qo'llanilsa, suv sarfi keskin kamayib, kultivatsiya kilish, jo'yak ochish va o'simliklarni oziqlantirish kabi bir qator mexanizatsiyalashgan ishlarning nafaqat miqdori, balki paxta etishtirishda mehnat va yokilg'i sarfi ancha kamayadi. So'g'orishda bo'linadigan maydonlarda egiluvchan quvurlardan foydalanilsa, suv sarfi kamayadi, suvdan foydalanish darajasi oshadi, kultivatsiya kilish sifati ancha yaxshilanadi.

Oltinchi biostimulyatorlardan oqilona foydalanilsa, chekanka o'tkazishga xojat qolmaydi. Biostimulyatorlardan foydalanilmagan holatda bir daladagi g'ozalarning rivojining bir xil bo'lishini ta'minlash ancha mushkul bo'ladi. Biostimulyatorlardan foydalanilmagan dalalarning g'oz rivoji bir xil balandlikda bo'lsagina, CHVX-4 moslamasi bilan kultivatsiya yoki juyak olishda mexanizatsiyalashgan chekankani o'tkazish mumkin. Bunda mehnat xarajatlari gektariga 50...70 ming so'mga kamayadi.

Yettinchi paxta hosilini mashinada terib olish terim xarajatlarni keskin kamaytirib, sifatli paxta xom-ashyosi olinishini ta'minlaydi. O'rta bir gektardan 2,5...3,5 paxta etishtirilsa, shuning 2...3 tonnasini mashinada terib olish mumkin. Bu terimga ajratiladigan mablag'ni qo'l terimiga nisbatan 1,0...1,5 mln so'mgacha tejalishiga imkoniyat yaratadi.

Paxtani mashinabop qilib yetishtirish texnologiyasiga qo'yiladigan agrotexnik talablar.

Dalaning yuzasi tekis qiyaalik 8...10%dan ko'p bo'lmasligi;

Dala chetlarida mashinaning harakatiga to'siq bo'ladigan kurilishlar yoki tarvaqaylab ketgan



daraxtlar bo‘lmasligi;

Yuqoridagi talabni bajarish uchun nima qilish kerak?

Mayda uchastkalarini yiriklashtirish-bunda so‘g‘orishda egiluvchan quvurlardan foydalanish tavsiya etiladi;

Dala chetidagi uzun shoxli daraxtlarni bo‘ta va inshoatlardagi to‘siqlarni bartaraf etish;

Simyog‘ochlarni dalaning chetiga o‘rnatish yoki uni standart simyog‘ochlarga almashtirish chorasini ko‘rish;

Dalaga agregatlar va paxta terish mashinalarini kirib chiqishi qulay bo‘lgan dalalarni tanlash yoki kirish chiqish joylarini qulay bo‘lishini ta‘minlash;

Mashina terimiga ajratilgan dalalarni ekishga tayorlash.

Bunda asosiy e‘tibor g‘o‘za nihollarini agrotexnik muddatlarda bir tekis to‘liq undirib olishga qaratilishi zarur.

Buning uchun nimalar qilish kerak?

20 fevraldan 8 martgacha muddatda ya‘ni dalaga agregatlar kirishi mumkin va tuproq namligi 14...22% bo‘lganida tezkorlik bilan barcha dalalardagi er xaydashida hosil bo‘lgan chuqur egat (razval)ni ko‘mish va marza (razval)ni tekislashni amalga oshirish zarur.(borozda ko‘mish).

20 fevraldan 8 martgacha muddatda 2-3 yurishli kenglikda chizel qilinib ajriq kabi ko‘p yillik begona o‘t ildizlari o‘rnatma boronalash agregati yordamida taroqlanib, bir joyga yig‘iladi va qo‘l kuchi yordamida terib olinishi kerak.

Nam saqlash boronalash kechiktirilmasdan 10 mardan 1 aprelgacha bo‘lgan muddatda ikki qatorli tirkama zigzag joylashgan boronalar bilan 2...3 ish kunida sifatli o‘tkazilishi kerak. Agarda boronalangandan so‘ng yomgir yoksa, namni saqlash uchun yana takror boronalash o‘tkaziladi.

Yerlarniekiimgatayorlashishlariquyidagicha bajarilishi tavsiya etiladi.

a) ekishdan bir kun oldin asosan ikki marta ikki izli borona bilan boronalash: (dala yuzasidagi tuproqning namligi normal bo‘lganida).

b) mola-boronalash: (tuproqning namligi normal namlikdan 2...3% kam bo‘lgan holatda yoki namgarchilik kam bo‘lgan yillarda) ekish mola-borona qilingandan keyin 2-3 kundan keyin xam o‘tqazilsa bo‘ladi, chunki pastki qatlamdagi nam yuqoriga ko‘tariladi.

v) 8...12 sm chuqurlikda chezillaish va molalash: (tuproqda nam ko‘p bo‘lgan, tuprog‘i zichlashgan maydonlarda, umuman yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan yillari, noteks shudgor qilingan maydonlarda)

5) Dalani ekishga tayorlash ishlari sifatli ta‘mirlangan agregat (keng qamrovli boronalash agregati, kamrash kengligi 6 metr dan kam bo‘lmagan mola-boronalash agregati, o‘rnatma chizellar, tekislagichlar) lar yordamida diogonal xarakatlanish usulida amalga oshirilishi kerak.

Ekishni tashkil etish.

Ekish 1 apreldan 20 aprelgacha bo‘lgan muddatda maqbul 5 ish kuni (tuproqning namligi etarli, mayin ishlanagn va tuproq temperaturasi 10 gradusdan yuqori bo‘lgan xolat) da to‘lik tugatilishi kerak, shuning uchun erlarni ekishga tayorlash agregatlari xar 50 gektarga 1 tadan bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa:

Ilmiy texnikaviy taraqqiyotda ishlab chiqarishning raqobatli tizimini yaratish va uni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. SHu sababli respublikamiz xo‘jaliklarida paxta etishtirishda paxta hosilini mashinabop qilib etishtirish texnologiyasidan foydalanilsa, paxta etishtirilgan daladagi ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan Harakat dasturi «Zarafshon» gazetasi, 29 yanvar 2015 yil, №14(22487).

2. SHoumarova M.Abdullaev T. Qishloq xo‘jalik mashinalari. T.2002 yil.

3. Oyxujaev E, Qutnazarov X. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash.T. Mehnat. 1992yil.



НАТО МАМЛАКАТЛАРИНИНГ ТАКТИК БОШҚАРУВ БЎЎГИНИДА АЛОҚА ТИЗИМЛАРИ

Зокиров Рахматилло Мухторович ЎР ҚҚ
Кичик мутахасислар тайёрлаш маркази
Алоқа ва ахборотлаштириш цикли катта
ўқитувчиси, подполковник
Адилов Жўрабек Нориматович ЎР ҚҚ
Кичик мутахасислар тайёрлаш маркази
мухандислик цикли катта ўқитувчиси,
подполковник

Аннотация: ушбу мақола етук ва давлатларда бошқарувни ташкиллаштириш, алоқа тизимини ривожлатириш, ахлоқий, рухий ва касбий жиҳатдан тайёргарликлари юқори даражада бўлишини таъминлашга қаратилган.

Калим сўзлар: тактик бошқарув бўғини алоқа тизимлари; ҳарбий алоқа стандартлари; ишлаб чиқарилган алоқа воситалари намуналари; тактик радиостансияларининг техник хусусиятлари.

Abstract. Standards and equipment of tactical communication systems of NATO countries are considered. The review is based on available open sources posted on the Internet.

Keywords: tactical communication systems; military communication standards; samples of manufactured equipment; tactical radio station; functionality; technical characteristics.



A BRIEF OVERVIEW OF FOREIGN MILITARY TACTICAL COMMUNICATION SYSTEMS

НАТО мамлакатларнинг тактик бошқарув бўғинида алоқа тизимларининг стандартлари ва алоқа воситаларини кўриб чиқиш интернетда жойлаштирилган мавжуд очик манбаларга асосланган.

НАТО мамлакатларида тасдиқланган стандартлар асосида тактик бошқарув бўғини алоқа тизимларини ишлаб чиқиш йўлга қўйилган ва шу стандартлар асосида алоқа воситаларини ишлаб чиқариш амалга оширилади. Америка Қўшма Штатлари ўз ҳарбий алоқа стандартларига эга ва бу стандарт MIL_STD_xxx деб белгиладиган (xxx стандарт сони).




НАТО стандартларида STANAG xxx сифатида белгиладиган (xxx стандарт сони). АҚШ ва НАТО стандартлари ўхшаш бўлиб улар бир-бирини таркибий қисмлар ёки режимлар сифатида тўлдирishi мумкин.



Алоқа воситаларида турли хил стандартлаштирилган иш режимларининг мавжудлиги ҳар хил алоқа сеансларини (очик, ёпик, видеотрансляция ва ҳк) ташкил қилиш, турли хил абонентлар ўртасида ҳар хил турдаги маълумотларни (нутқ, маълумотлар, видео, матн ва ҳк) узатиш имконини беради. Стандартлаштирилган алоқа воситалари алоҳида алоқа тизими эмас, балки НАТО мамлакатлари Қуролли Кучларининг глобал алоқа тармоғининг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу стандартлардан бири бу SINCGARS тактик радио стандартидир. SINCGARS - бу битта каналли қуруқликдаги ва ҳарбий ҳаво кучлари ишлатиладиган тактик бошқарув бўғини радиоалоқа тизими бўлиб ҳозирда АҚШ ва НАТО Қуролли Кучлари томонидан фойдаланиб келинади. Ушбу стандартни амалга оширадиган радиостанциялар осон қўлланилади, фойдаланувчиларга ишончли шифрланган овоз ва маълумотларни хавфсиз узатиш имкониятларини тақдим этади.

Ушбу радиостанцияларни автомобилларда, самолётларда ўрнатиладиган, қўлда кўтариб юриладиган (портатив) ва ранецли (рюкзакда) олиб юриладиган вариантлари мавжуд. Частота қадами - 25 кГц. Ишчи частота диапазони 30 дан 87,795 МГц гача. Белгиланган частотада, шунингдек частотали сакраш билан ишлаш режимлари мавжуд. Частотали сакраш режимида, частота секундига 111 марта ўзгаради. Ушбу стандарт асосида ишлаб чиқарилган алоқа воситалари бир неча бор ўзгартирилди. Унга нутқ ва маълумотларни криптографик ҳимоя қилиш функциялари қўшилди, маълумотлар узатишнинг махсус режимлари жорий қилинди, ускунанинг ҳажми ва оғирлиги икки баробарга кичрайтирилди.

Яна бир тактик радиоалоқа стандарти - HAVE QUICK (HQ), бу частотали сакраш радиоалоқа стандарти бўлиб ҳимояланган ҳарбий тактик радиоалоқа воситаларини яратиш учун жорий қилинган. XX аср электроника соҳасидаги ютуқлар оддий ва арзон ускуналар билан радиоалоқаларга сезиларли шовқинларни юзага келтиришга имкон берди. Бу радиоалоқани ҳимоя қилиш учун муҳимдир. Душман томонидан ишлатиладиган частоталар аниқланиши биланоқ, авиация ва ҳарбий алоқа радиоканалдан ёки оддий қабул қилгичдан фойдаланиб, ушбу частоталарда фаол шовқинларни келтириб чиқаради, алоқа сифатини сезиларли даражада пасайтиради ёки умуман эшитишни имконсиз қилади. НАТОнинг ҳарбий тактик маълумот алмашиш тармоғининг тизимларидан бири Link деб номланди. Ушбу тизимда маълумотлар деярли реал вақтда (минимал кечикиш билан) узатилади. Бу тактик узатиш тармоғи оиласининг таркибий қисмларидан биридир.



TADIL маълумотлари (Тактик рақамли маълумот ҳаволаси. Бу тактик қўмондонлик, самолётлар, кемалар ва қуруқлик бўлинмалари ўртасида маълумотлар алмашинувини



қўллаб-қувватловчи алоқа, навигация ва идентификация қилиш тизимидир. Алоқа UHF диапазонида (дециметрли ультра юқори частота диапазони) амалга оширилади. Частотали сакраш хавфсизликни таъминлайди. Канал ресурсларини тақсимлаш TDMA вақтини тақсимлаш принципига асосланади. Унда барча тармоқ иштирокчилари ўртасида маълумотларни узатиш ва қабул қилиш учун вақт оралиқлари ажратилган. Ҳар қандай комбинациялар Link 16 графика, матнли хабарлар ва иккита 2,4 ёки 16 кбит/с овозли каналларни тақдим этади. Линк 16 НАТОнинг STANAG 5516 стандартида тавсифланган MIDS (Кўп функционал маълумот тарқатиш тизими) доирасидаги рақамли хизматлардан бири сифатида тавсифланади.

Хулоса: ўрнида шуни айтиб ўтиш керак, НАТО мамлакатлари сингари кўшинларни бошқаришда, курсантларни ўқитишда, замонавий алоқа воситаларидан фойдаланган холда ўқитиш тизимини йўлга қўйиш, бунинг учун кириб келаётган янги замонавий алоқа воситалари биринчи навбатда ўқув муассалари таминланиши керак.

Foydalanilgan manbalar:

1. Planet Labs Photograph © 2021
2. Human Rights Watch
3. www.ссб.гов.тр
4. авиатионсв.com



ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРНИНГ ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМЛАРИНИ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Садиков Бахтиёр Рустамович,
ЎР ҚК Кичик мутахассисларни тайёрлаш
маркази услубий бўлинма бошлиғи,
подполковник тел: 90-502-89-20
Эшонқулов Одил Алламурастович,
ЎР ҚК Кичик мутахассисларни тайёрлаш
маркази катта йўриқчиси, И-даражали сержант.

***Аннотация:** ушбу мақолада ҳарбий кадрлар малакасини ошириш ва тайёрлаш сифатига талаблар ортиши ва ҳарбий таълим тизимини самарали бошқаришни таҳлили, таълим-тарбия масалаларига давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири сифатида қаралиши ёритилган.*

***Калим сўзлар:** тарих, миллат, малака, тоифа, маҳаллий, жаҳон, мудофаа, кадрлар, урф-одат, илм-фан, инсон ва шахс, маданият, ватанпарварлик, инсонпарварлик.*

Замонавий ҳарбий таълим парадигмаси ҳарбий-сиёсий вазиятнинг ўзгариши, пайдо бўлаётган ҳарбий таҳдидлар, уруш ва қуроли курашнинг мазмуни билан тавсифланади; таълимнинг байналмилаллашуви ва мамлакат таълим тизимининг ҳарбий таълим тизимига таъсири;

ҳарбий кадрлар малакасини ошириш ва тайёрлаш сифатига талаблар ортиши ва ҳарбий таълим тизимини самарали бошқариш зарурияти.

Хорижий мамлакатларда ҳарбий таълим тизимларини илмий тадқиқ қилишнинг долзарблиги бир қатор назарий, услубий ва амалий сабабларга ва миллий ҳарбий таълим тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш зарурлигига боғлиқ.

Шу билан бирга, таълим соҳасида жаҳон ва маҳаллий тажрибадан фойдаланган ҳолда, ҳарбий таълимнинг истиқболли тизимини ишлаб чиқариш мақсадлари учун таълим тизими сифатида лойиҳалаштириш зарур, бу нафақат унинг келажақдаги ўзгаришларини олдиндан режалаштиришда, шунингдек, уларнинг мамлакатимиз Қуроли Кучларининг мудофаа қобилияти ва жанговар тайёргарлигига таъсирини кутишда.

Шу муносабат билан хорижий давлатларнинг (Россия, АҚШ, Германия, Буюк Британия, Франция, Канада ва бошқа катори) ҳарбий таълимини, уларнинг ҳарбий кадрларни тайёрлаш ва тарбиялашга ёндашувларини тизимли равишда таҳлил қилиш жуда катта аҳамиятга эга.

Белорусия Республикасининг ҳозирги ривожланиш босқичидаги ҳарбий таълим тизимининг асосий муаммоси ҳарбий таълим сифатини ҳарбий қўмондонлик ва бошқарув органлари мансабдор шахсларининг ҳарбий-касбий фаолиятининг ҳозирги ва келажақдаги эҳтиёжларига мувофиқ равишда оширишдан иборат.

Ҳарбий таълим тизимлари томонидан янги сифатли ҳолатга эришиш, ҳарбий соҳада содир бўлаётган ўзгаришларнинг динамикасини, кўплаб қарама-қаршиликлар ва камчиликларни ҳисобга олмаган ҳолда, уларнинг аксарияти янада кучайиб бораётгани ва янги ёндашувларни излашни тақозо этиши мумкин эмаслиги аниқланди. Ҳарбий таълим тизимларини ривожлантириш.

Муайян ютуқлар мавжуд бўлганда, Беларуссия ҳарбий таълим тизими, бошқа бир қатор тизимлар сингари, баъзи камчиликларга эга:

унинг барча бўғинларида оптимал бошқариш учун илмий асосланган моделлар, алгоритмлар ва технологияларнинг этишмаслиги;

ҳарбий таълим тизими субъектларининг ва биринчи навбатда бошқарув функцияларини бажарувчиларнинг касбий ва расмий салоҳиятининг паст самарадорлиги;

Қуроли Кучларни ташкилий ривожлантириш ва ривожлантиришнинг янги талабларига мувофиқ ҳарбий таълим муассасаларида офицерларни амалий тайёрлаш ва ҳарбий таълим тизимини самарали бошқариш учун конструктив ташкилий ва педагогик асосларнинг этишмаслиги.

Муаммони ўрганиш натижалари Беларуссия Республикасида ҳарбий таълимни бошқариш сифатини яхшилашга қаратилган. Бундай ҳолда, хорижий тажрибани қўллаш Беларуссияда



ҳарбий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг тарихий тажрибаси, анъаналари ва замонавий амалиётини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак.

Россия ва Белоруссияда ҳарбий таълимнинг ҳозирги ҳолати, тарихий тажрибаси, анъаналари ва ривожланиш истиқболлари

Россия ва Белоруссияда ҳарбий таълимнинг ҳозирги ҳолатини ҳисобга олган ҳолда, миллий ҳарбий мактабда шаклланган анъаналарни ҳисобга олмаган ҳолда амалга ошириш мумкин эмас.

300 йилдан ортиқ тарих шуни кўрсатадики, ҳарбий таълим соҳасидаги барча туб ўзгаришлар Қуроли Кучларни қайта қуриш билан бир вақтда амалга оширилди.

Бу Буюк Пётр даврида мунтазам армия ва денгиз флотини яратиш пайтида, «Милютин» ҳарбий ислохотларини амалга ошириш пайтида, ИХХ-асрнинг иккинчи ярмида, Буюк Ватан урушидан олдинги йилларда ва энг баланд пайтларда бўлган. ўтган асрнинг 70-йилларида Совуқ уруш.

Совет ҳарбий мактаби рус армиясининг анъаналаридан энг яхши нарсаларни ўзлаштирди. Бу қандаюрф-одатлар?

Биринчидан, ҳарбий мактаб миллиеди, шунинг учун офицер учун асосий ва белгиловчи тушунча Ватан тушунчаси эди.

Иккинчидан, рус зобити ҳар доим давлат арбоби, ватанпарвар, унинг юксак даъватига қаттиқ ишонган, миллий ғурур ва миллий кадр-қимматини ҳис қилган.

Учинчидан, офицерлар орасида ҳурмат тушунчалари билан кўриқланадиган ҳурматли, дўстона муносабатлар устун келди.

Тўртинчидан, Россия армияси қўмондонларининг ҳарбий урф-одатларига, ҳеч қандай иккиланмасдан жангга кириш, ўз вазифаларини шараф билан бажариш, ҳар қандай хавф ва ўлим олдида титраб кетмаслик одати киради.

Бешинчидан, офицер муҳитида ҳар доим ўзини тутишнинг юқори ахлокий меъёрлари ва биринчи навбатда, сўзга ёки бошқа мажбуриятларга содиқлик мавжуд эди. Шундай қилиб, ҳарбий мактаб миллий таълим тизимининг энг яхши анъаналари ва стандартларига, офицерлар тайёрлашнинг бой ва ўзига хос тажрибасига асосланган эди.

1992 йилда Россия ва Белоруссия қуроли кучларининг ташкил этилиши ҳарбий мактаб ривожланишида янги босқични бошлаб берди.

Ҳарбий таълим тизими давлатнинг ҳарбий ташкилотининг зарур ва ажралмас қисмидир. Қуроли Кучларнинг тайёргарлик даражаси давлат ва махсус талабларга жавоб берадиган офитсерларга бўлган эҳтиёжларини қондириш учун мўлжалланган. Ҳарбий таълим тизимининг асосий элементи - ҳарбий таълим муассасалари.

Россия ва Белоруссияда ҳарбий таълим тизимининг шаклланиши СССР даврида Қуроли Кучларни барқарор молиявий ва моддий-техника таъминоти шароитида содир бўлди, бу ҳарбийларнинг зарур илмий-педагогик салоҳиятини сақлашга имкон берди. Қурол-яроқ ва ҳарбий техниканинг сўнгги турларига бўлган эҳтиёжларини қондириш, моддий-техника базасини тизимли равишда модернизатсия қилиш ва шу асосда офитсерларни юқори сифатли тайёрлашни таъминлаш учун ўқув муассасалари.

Ҳарбий таълимнинг миллий тизимлари шаклланишидан буён ишларнинг ҳолати тубдан ўзгарди. Ушбу давр СССР қулаганидан кейин бузилган ҳарбий таълим тизимининг яхлитлигини тиклаш, миллий армияларталаб қиладиган барча мутахассисликлар бўйича мутахассислар тайёрлашни ташкил этиш зарурлиги билан ажралиб турарди.

Хулоса: қўшинларнинг тайёргарлик сифати ҳарбий касбий фаолият ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига жавоб берадиган офицерлар учун эҳтиёжларини қондириш учун ташкилий-ҳуқуқий шароитларни яратиш орқали эришилади.

Адабиётлар:

1. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. -Т.: “Шарқ”, 1998.
2. Ўзбекистон миллий енсиклопедияси. Т., «Қомус» бош таҳририяти.



HARBIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA

Muxtorov Qodirxon G'ozixon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
radiasion, kimyoviy, biologik muhofaza
sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Hayitov Baxtiyor Omonovich,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
radiasion, kimyoviy, biologik muhofaza sikli boshlig'i

ANNOTATSIYA: *Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli xal etilsa, ijtimoiy siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.*

KALIT SO'ZLAR: *innovatsiya, ta'lim, jarayon, tarix, harbiy, Al-Xorazmiy.*

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonining mazmuni va mohiyati.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahon va sharq ilm - ma'rifatining buyuk nomoyondalari bo'lmish Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'zlarining asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlarni xususidagi qarashlarini yoritish orqali o'zlari ham pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur xurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim – tarbiya samaradorligi va inson kamolatini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizida bolani tushina olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelishi extimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning insoniyligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'rganuvchi ongiga singdirilayotgan ezgu-g'oyalarning xayot barqarorligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etgan.

Ta'limning o'ziga hos xususiyatlaridan biri, ayniqsa oliy ta'limdagi o'ziga hoslik har bir inson, hamda bo'lajak mutaxassisda mustaqil o'qish, mustaqil rivojlanish va butun umri davomida o'z bilimlarini, extiyoji, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda uzluksiz ravishda o'z ustida ishlab, xayotga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishdir. Har qanday faoliyat va jarayon vaqti kelib, innovatsiyani yangilanishni talab qiladi.

Shunday ekan bizning ta'lim jarayonini yangilash va yetuk qadrlarni yetishtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish (Reforma) qilish uchun 1997 yil 29 avgustda “Ta'lim to'g'risidagi” qonun qabul qilindi. Shu bilan birga yetuk kadrlarni yetishtirish maqsadida shu kunning o'zidayoq “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali intellektual salohiyati kuchli bo'lgan kerak bo'lsa boshqa davlatning mutaxassis kadrlari bilan raqobatlasha oladigan ulardan ustun bo'la oladigan kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Innovatsiya yangilik kiritish, o'zgartirish kiritish, ya'ni (*ingilizcha-so'zdan olingan bo'lib, yangilik yaratish degan ma'noni anglatadi*).

Jaxon ilm – ma'rifatining buyuk nomoyondasi Muxammad Ibn Muso al- Xorazmiy (783- 850) y. yashab ijod etgan buyuk mutfakkir olimdir.

Xorazmiy matematika, geografiya, falakiyot sohaslarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u ko'proq matematika sohasidagi yangilik yaratgan nazariyatchi hamda pedagog – uslubiyatchi olim sifatida tarixda nom qoldirgan. Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga ulkan xissasini qo'shdi. Olimning “Al-Jabr va Muqobala” asari matematika fanini rivojlantirib, shu asari tufayli olimning “Al- Xorazmiy” nomi lotincha “Algoritm” shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritimga aylandi. Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo'lgan qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish va boshqa qoidalarini yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy Yevropa va Sharqda falakiyot va matematika sohasidagi



yangi davrni ochdi. Xindlarning o'nluk tizimi raqamlari Xorazmiy tufayli “Arab raqam” lari nomi bilan fanga kirdi.

Abu Ali ibn Sino X asrning oxiri XI asrning boshlarida yashab ijod etgan buyuk mutaffakkir olimdir. Olim 16 yoshidan boshlab barcha fanlar sohasida mustaqil mutolaa qila boshladi. Bu davrda u kunduzlari tinmay, kechalari uxlamay kitob o'qishga kirishdi. Abu Ali ibn Sino tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik va mexnat (xunar o'rgnishi) tarbiyalarining bir butunligini taqozo etadi deb ko'rsatgan edi. Abu Ali ibn Sino maktabda o'qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etish g'oyasini olg'a surdi, o'qitish jarayoning didaktik asoslarini yaratdi. Olimning fikricha, bolani kitobga band qilib qo'ymaslik, o'qish sekin-asta yengilidan og'iriga qarab borish orqali olib borilishi kerak. O'quvchilar bilan olib boriladagan maslahatlar ularning yoshiga mos bo'lishi lozim deydi.

O'quvchilarning mayli hamda qobiliyatlarini hisobga olish zarur Abu Ali ibn Sino “Kitob-al Qonun fit-tib ” (Tib-qonuni), ”Tadbiri manzil”, “Donishmand”, “Hidoyat” va boshqa ko'plab asarlarida pedagogikaga doir qarashlari va ta'limotlarini bayon etgan. Ta'lim mohiyat e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'qituvchining bilm, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o'qish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatleri, dunyoqarashi, qobiliyati va tafakkuri rivojlanadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi, kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yoki avlodga ta'lim-tarbiya orqali o'tadi.

Ta'limning maqsadi obyektiv xayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani qabi ta'limning harakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini xal qilish jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta'lim bilim berish, malaka va ko'nikmalar xosil qilish jarayoni, kishini xayotga va mexnatga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Xulosa: demak biz yuqorida bildirilgan fikr muloxazalardan shunday deyishimiz mumkin. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va xayotiy zarurati bulgan ta'lim tizimi, qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimini islox qilish va takomillashtirish, yangi sifat boskichiga kutarish, unga ilgor pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy kilish xamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ta'limning bugungi vazifasi ukuvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muxiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. “Ta'limda innovasion texnologiyalar” (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008 -180 b.



YETAKCHILIK TABIATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Erkayev Berdiyov Yuldashevich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi o‘qituvchisi

Ibragimov Firdavs Botirxonovich,

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
artilleriya sikli katta o‘qituvchi, mayor

“Bilagi zo‘r birni yengadi, bilimi zo‘r mingni yengadi”.
Amur Temur

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik komandirlarni yetakchilik va komandirlik xususiyatlarini o‘rgatish va tayyorlash to‘g‘risida qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yetakchi, Boshqarish, Avtoritar, Demokratik, Professional, Shaxsiy.

Boshqarish har qanday jamiyatga xos bo‘lgan ichki xususiyatdir. Uning tuzilishi va mexanizmlari nihoyatda murakkab bo‘lib, jamiyat hayotida amal qilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Boshqarish jamiyat hayotining hamma sohalariga daxl qiladi va uning ta‘sirida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Boshqarishga xos bo‘lgan ob‘ektiv xususiyat jamiyat rivojlanish qonuniyatlari talablariga muvofiq amal qiladi. Boshqarish qanday shakllarda olib borilishi va amal qilishidan qat‘iy nazar, u siyosiy mohiyatga ega bo‘ladi. Boshqarishning siyosiy mohiyati boshqarish va rahbarlikni siyosat sub‘ektlari tomonidan oshirilishi bilan belgilanadi. Siyosatning har bir sub‘ekti boshqarishda ma‘lum darajada ishtirok etadi.

Boshqarishning siyosiy mohiyati jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Agar boshqarish faoliyati jamiyat hayotida ro‘y beradigan voqea-hodisalar, o‘zgarishlarga ta‘sir qilmasa va ular harakatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanilmasa, jamiyat rivojlanishi izdan chiqadi. Insoniyatning butun tarixi kishilarning tabiat va jamiyatning stixiyali harakatiga qarshi kurashdan iborat bo‘lib kelgan. Ibtidoiy munosabatlardan mulkchilik munosabatlariga o‘tilishi va dastlabki quldorlik davlatining paydo bo‘lishi boshqarishning siyosiy mohiyat kasb etishi uchun asos bo‘lgan. Davlat siyosatning sub‘ekti sifatida jamiyat hayotini boshqarishni o‘z zimmasiga olgan va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy mazmunga ega bo‘lgan.

Yetakchilik – siyosiy faoliyat turi bo‘lib, u ikki tomonning o‘zaro aloqalarini anglatadi: birinchi tomon – yetakchilar o‘z izdoshlarining manfaat va ehtiyojlarini biladilar va bayon etadilar, boshqa tomon esa, shu manfaatlarni ifodalash va amalga oshirishlari uchun o‘z vakolatlarining bir qismini ularga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

Zamonaviy siyosiy fanlarda yetakchilikka doir bir qancha yondashuvlar mavjud:

Yetakchi – bu boshqa kishilarga ta‘sir etish demakdir. Yetakchi va uning izdoshlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar mavjud bo‘lib, u yetakchidan guruh a‘zolariga qarab har doim bir tomonlama yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yetakchilik – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy pozitsiyadir.

Siyosatshunoslar hozirgi zamonda yetakchilarni u yoki bu mezonlarga ko‘ra avtoritar va demokratik yetakchilarga ajratadilar:

Avtoritar yetakchilik – tanho yo‘naltirilgan ta‘sir etish xususiyatiga ega bo‘lib, u sanksiyalar, kuch ishlatishni nazarda tutadi. Asosi: odatlar.

Demokratik yetakchilik – rahbar tomonidan guruh yoki tashkilot a‘zolarining fikrlari, manfaatlarini hisobga olib, ularning boshqarishda ishtirok etishini ifodalaydi. Asosi: tafakkur, e‘tiqod va hissiyotlar.

Yetakchining funksiyalari – uning faoliyatining bosh yo‘nalishidir.

Yetakchilikning asosan quyidagi siyosiy funksiyalari mavjud:

- jamoani jipslashtirish va birlashtirish;
- eng maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- ijtimoiy hakamlik va patronajlik, qo‘riqchilik, ommani qonun-sizlikdan, amaldorlarning

o‘zboshimchaligidan himoya qilish, tartibot va qonunchilikni nazorat, rag‘batlantirish va jazolash



choralari bilan saqlab turish;

- hokimiyat va ommaning muloqoti, siyosiy va hissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish;
- yangilanish tashabbuskori bo‘lgan optimizm va ijtimoiy energiyani to‘plash, omma siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga safarbar qilish.

Davlatimiz rahbariyati mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini yuksak darajada boshqarishni tashkil etishiga katta e‘tibor qaratadi, rahbar kadrlardan boshqaruv nazariyasini chuqur o‘rganishni, zamonaviy ish usullarini egallashni, ishga ijodiy yondoshishni va tashabbuskor bo‘lishni talab qiladi.

Boshqaruv va rejalashtirishning aniq usullari mamlakat, shuningdek, Qurolli Kuchlar rivojlanishining har bir bosqichidagi hayotiy shart-sharoitlarga mos kelishi kerak. Tabiiyki, bu obektiv qonuniyatdir.

Har bir ofitser, Qurolli Kuchlarda qanday lavozimni egallashidan qat’iy nazar, tinchlik davrida ham, jangovar vaziyatda ham, boshqaruv faoliyati bilan doimo bog‘liqdir. Faoliyatning bu turi jamiyat boshqaruvining bir qismi bo‘lib, o‘z xususiyatlariga ega va boshqaruv vazifalarini bajarishda ofitserlardan nafaqat oliy ma’lumotga, balki etarli darajadagi siyosiy va maxsus bilimlarga, nazariy tayyorgarlikka, ma’lum tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi.

SHu bilan birga jamoani boshqarish yetakchining siyosiy savodxonligi darajasiga ham bog‘liqdir. Yetakchi siyosiy savodxonligi darajasi uning boshqaruvda qanchalik siyosiy bilimlarni, qonun va me‘yorlarni, boshqarish uslubi va resurslarini o‘zlashtirganligi va ularni amalda qo‘llay olishi bilan belgilanadi.

Hukumatimiz tomonidan mamlakatning XXI asr yosh yetakchi rahbarlarni tayyor-lashga qaratilgan qator dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997), «Sog‘lom avlod» davlat dasturi (2001) kabi dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bugungi kunda amaliyotda o‘z ifodasini topmoqda.

Har bir harbiy boshliq bilimdonlik, yangiliklarni teran his etish, murakkab masalalarni hal qilishda javobgarlikni o‘z zimmasiga ola bilish, tashabbuskorlikni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy tarkib imkoniyatlarini safarbar qila olish kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Qo‘shinlarni boshqarish tizimi har bir harbiy rahbarga qisqa vaqt ichida, axloqiy-ruhiy va jismoniy og‘ir vaziyatlarda teran fikrlash va harakat qila olish qobiliyatini yuklaydi.

Boshqaruvning ruhiy qonuniyatlaridan to‘laroq foydalanish, qo‘l ostidagi xizmatchilar tashabbusini rivojlantirish va undan foydalanish, qo‘yilgan vazifa-larga ijodiy yondashish bu faoliyatning samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biridir.

Bu imkoniyatlarini bilish, o‘z amaliy faoliyatida ulardan foydalanish haqida doim o‘ylash, ruhiy asoslangan usullarni o‘z faoliyatiga tatbiq etish, qism va bo‘linmalar shaxsiy tarkibini Vatanimizni himoya qilishga tayyorlash vazifasini hal qilishning muhim shartidir.

Xulosa

Qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda, kichik komandirlar, serjantlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda emotsional-irodaviy xususiyatlarining vaziyatli bezovtalanish, irodaviy sifatlar, Vatanparvarlik his-tuyg‘ulari, maskulin va feminin xususiyatlarning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi. O‘zida ushbu xususiyatlarni rivojlantirishga e‘tibor bergan har bir komandir va boshliqlar shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston.

Toshkent, 2018 yil, 4 avgust № PQ-3898.

2. Карелин А. Большая энциклопедия психологических тестов. М. “ЕКСМО” 2007.

3. Бем С.Л. Линзы гендера: Трансформация взглядов на проблему неравенство полов / Пер. с англ./-М.: Российская политическая энциклопедия, 2004.

4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya 1-kitob. Toshkent, -2002 -b. 79-84.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 5-ҚИСМ

(5-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000